

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

5310100 – "Energetika (Issiqlik energetikasi)"

bakalavr ta'lim yo'nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Sho'rtan gaz kimyo majmuasi bug' qozoni
samaradorligini oshirish**

Rahbar: _____ **Berdiyev E.E**
(imzo)

Ishni bajaruvchi: _____ **Annayev I.U.**
(imzo)

"Himoyaga ruxsat etildi"

Kafedra mudiri:

_____ **A.G'. Komilov**
(imzo)

" _____ " _____ 2015yil

"HimoyauchunDAKgayuborildi"

Fakultet dekani:

_____ **dots. A.I.Yusupov**
(imzo)

" _____ " _____ 2015yil

QARSHI– 2015yil

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Energetika fakulteti

5310100 – " Energetika (Issiqlik energetikasi)" ta'lim yo'nalishi

"TASDIQLAYMAN"

Kafedra mudiri

_____ A.G'. Komilov
" _____ " _____ 201__yil

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha

T O P S H I R I Q

Talaba _____ g
a

1. Malakaviyishmavzusi _____

Institut rektorining № _____ buyrug'ibilan _____ da tasdiqlangan

2. Malakaviyishnitopshirishmuddati _____

3. Malakaviyishhuchunma'lumotlar _____

4. Xisobiyizohqisminingmazmuni (ishlabchiqilishilozimbo'lgansavollarro'yxati)

5. Chizmalarro'yxati (bajarilishishartbo'lganchizmavagrafiklar) _____

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
 I. ASOSIY QISM	
1-bob. SHGKM da asosiy texnologik jarayon va energiya ta'minoti.....	8
1.1. SHGKM ning umumiy tavsifi.....	8
1.2. BGHT sexining umumiy texnologik jarayoni.....	13
2-bob. Texnologik jarayonlar va texnologik ehtyoj bug' qozoninig samaradorligigni oshiruvchi omillar va sxemalarning hisobi.....	
2.1. Texnologik jarayonning ta'rifi , texnologik sxemaning hisobi.....	22
2.2. Reduksion sovitish qurilmasi, rekuperativ havo qizdirgich hisobi.....	29
II. MEHNAT MUHOFAZASI VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI.....	45
III. ATROF-MUHIT MUHOFAZASI.....	50
IV. IQTISODIY QISM.....	58
XULOSA.....	63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	65

KIRISH

Istiqlolimizning ilk kunlaridanoq prezidentimiz I. Karimov tashabbusi bilan neft va gaz sanoatida izchil islohotlar o'tkazishga hamda sohani rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratildi. Mamlakat neft yoqilg'i energetika resurslari mustaqilligini ta'minlash birinchi navbatda hal etilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir.

1997 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi hukumati qaroriga asosan Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida yirik ishlab chiqarish korxonasi SHo'rtan gaz kimyo majmuasining qurilishi boshlandi. 1998 yil 17-fevralda «O'zbekneftgaz» va Konsorsium kompaniyalari tomonidan loyihalash, qurilish, uskunalar, yetkazish ishga tushirish to'g'risidagi shartnoma tuzilgan. Konsorsium kompaniyasi bir nechta kompaniyalardan iboratdir: AQSH ning «ABB Lummus Global», Italiyaning «ABB soimi», Yaponiyaning «Mitsuisco», «Toyo engineering» kompaniyalaridir. Loyihani moliyalashtirishda AQSH va Yaponiyaning banklari ishtirok yetishdi.

Loyihaning texnologik qismi 656,6 mln AQSH dollariga teng bo'ldi. Chet yel kreditlaridan tashqari bu majmuani loyihalash va qurish uchun AQSH valyutasiga ekvivalent 328 mln dollarda milliy valyuta ham sarflangan. Loyihani bajarishda AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Kanada, Janubiy Koreya, Fransiya davlatlari mutaxasislari jalb etildi. 2001 yilda O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatida SHo'rtan gaz kimyo majmuasi ishga tushirildi va 2002 yilning avgust oyida esa birinchi o'zbek polietileni ishlab chiqarildi. Shu kundan boshlab 130 mlrd 500 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Har yili realizatsiya qilinadi. Suyultirilgan gaz 100 ming tonna. Gazokondensat 100 ming tonna. Granulalangan oltingugurt 2500 tonna polietilen 125 ming tonnadan ortiq. Ishlab chiqarish va texnologik ko'rsatkichlari bo'yicha bunday majmua MDH davlatlarida yagona dunyo bo'yicha yettita. Mustaqillik davridagi eng yirik loyihalardan biri bo'lib xalqaro hamkorlikning natijasidir. SHGKM Sho'rtan konining tarkibida oltingugurt kam

gazni qayta ishlash natijasida bir necha turdagi polietilen mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Uning maydoni 150 ga. SHGKM da qo'llaniladigan texnologiyalar tabiiy boyliklardan va resurslardan foydalanishni yangi yo'llaridan biridir. Ishlab chiqarish texnologiyasi asosiy ikkita maydondan iborat: etilen va polietilen olish qurilmalari va umumiy zavod sexlari maydonidir. SHGKM texnologik jarayonlarini bajarish uchun SHGKM yuragi energoresurs sexi – bug' gaz havo ta'minoti (BGHT) sexi hisoblanadi. BGHT sexida texnologik jarayonlarini bajarish uchun yani tabiiy gazni fraksiyalarga ajratish uchun kerakli parametrlarda ishchi jism suv bug'ini yetkazib beriladi. Mening malakaviy bitiruv ishimda shu BGHT sexida yuqori bosimli bug'ni ishlab chiqarish uchun dastlabki Qarshi magistral kanalidan olinadigan suvni demineralizatsiya asosida tozalash usuli ko'rib chiqilgan. SHGKM ning ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining sifati xam BGHT sexiga bog'liqdir.

Mavzuning dolzarbligi. Sho'rtan gaz kimyo majmuasi bug' qozoni samaradorligini oshirishda bug' qozoniga yoqiladigan gazni iqtisod qilish va yoqilg'I resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida yoqilg'ini yoqish uchun beriladigan havo koeffitsiyenti xaroratini oshirish orqali yoqilg'i tejalishiga erishish dolzarb masaladir.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi. Bug' gaz xavo sexidagi RA– 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug' qozonini o'txonasidagi yonish jarayonini optimallashtirish natijasida bug' qozonning samaradorligini oshirish maqsadida qo'shimcha rekupirativ bug'li xavo qizdirgich modernizasiyalash va hisoblash.

Vazifalari:

- SHGKM texnologik jarayonini va BGHT da joylashgan PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug' qozonini o'txonasiga berilayotgan xavo sarfini o'rganib qo'shimcha bug'li xavo isitgich qurilmasini o'rnatish orqali bug' qozoni samaradorligini oshirish;

- Majmuaning texnologik jarayonida ishlatiladigan yuqori parametrlı bug‘ ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yoqılğ‘ini sarfini kamaytirish maqsadida o‘rnatilgan bug‘li xavo isitgich modernizasiyalash;
- Regenerativ havo qizdirgichni hisoblash ishi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyekti. Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi BGHT sexi RA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug‘ qozonini qurilmasi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Sanoatda qo‘llaniladigan bug‘ qozonlarini issiqlik samaradorligini oshirish , yoqılğ‘i tejamkorligiga erishish maqsadida regenerativ havo qizdirgichlar keng qo‘llaniladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ko‘rsatilgan regenerativ havo isitgich uskunasi bug‘ yordamida havo isitilishi yoritilgan bo‘lib amaliyotda qo‘llash yoqılğ‘i energetik resursini tejash uchun xizmat qiladi.

1-BOB. SHO'RTANGAZ KIMYO MAJMUASIDA ASOSIY TEXNOLOGIK JARAYON VA ENERGIYA TA'MINOTI.

1.1 Sho'rtan gaz kimyo majmuasi umumiy tavsifi.


Sho'rtan gaz kimyo majmuasi (SHGKM) qurilishi mustaqillik yillaridagi «O'zbek neft gaz » milliy xolding kompaniyasining yeng muvaffaqiyatli loyixalaridan biri hisoblanadi. 1998-yilning 17-fevralidagi (SHGKM) qurilishi dunyoning neft va gaz sohasidagi «ABB Lummus Global» (AQSH), «ERMAFA», «Fisher» (Germaniya), «ABB soimi» (Italiya), «Nova chemicals» (Kanada), «Soyuzvnefttrans» (Rossiya), «Mitsuisco Ltd» (Yaponiya) xorijiy kompaniyalari bilan hamkorlikda imzolangan shartnoma asosida boshlandi. SHGKM texnologik obyektlari 150 ga maydonda joylashgan bo'lib majmuaning g'arbga uzoqlikda Talimarjon IES, janubiy-g'arbga Talimarjon suv ombori shimolida esa 27 km uzoqlikda «Shurtan neft gaz» USHK bosh inshooti joylashgan. 1700 m uzoqlikda shimoliy-sharqda majmuaga qarashli ishchilar shaxarchasi qurilgan. Majmuaning shimoliy qismida Talimarjon suv ombori va Qarshi magistral kanalidan foydalanib o'zida 11,5 mln m³ suvni saqlash imkoniyatiga yega bo'lgan suv ombori mavjud.

2001 yilda O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatida SHGKM ishga tushirildi va 2002 yilning avgust oyida esa birinchi o'zbek polietileni ishlab chiqarildi.

Shurtan gaz kimyo majmuasi yiliga 3,5 mlrd m³ tabiiy gazni qayta ishlab quyidagi maxsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

Polietilen granulalari - 125 ming tonna, suyultirilgan gaz – 100 ming tonna, granulali oltingugurt – 2,5 ming tonna , metan – 3,2 mlrd m³.

Xozirgi kunga kelib SHGKM Respublikamiz iqtisodiyotiga o'zini katta hissasini qo'shayotgan O'rta Osiyo regionida analoglari bo'lmagan neft va gaz kimyosi soxasidagi gigant korxona deb atash mumkin.



1.1 - rasm. SHGKM da etilen ishlab chiqarish texnologik jarayonining sxemasi.

O'zbekiston Respublikasi uchun SHGKM ni qurilishi o'cib borayotgan bozor talablari asosida bo'lib, loyihani boshlashga qadar O'zbekiston polietilen granulalarini Rossiya, Xitoy va Koreya davlatlaridan keltirar bu esa o'z navbatida qo'shimcha valyuta mablag'larini sarflashga olib kelar edi. Bu xomashyo asosida ishlaydigan zavodlarni faoliyati esa xomashyo bilan o'z vaqtida ta'minlashga bog'liq edi. Shular bilan birga polietilen ishlab chiqarish uchun xomashyo hisoblangan etapga boy tabiiy gazni qayta ishlaydigan korxona yo'q edi.

Xozirgi kunda SHGKM da polietilen ishlab chiqarish ekstruziya (har xil turdagi plyonka, truba, oriyertasiya lentalari-kabel va simlar uchun mono iplar izolyatsiya ya'ni qoplama maxsulotlari) bug' yordamida formalanuvchi kanistralar (shishalar kanistralar, boshqa hajmdagi idishlar) ratasion shakllantirish (savat, chelak va boshqa katta va kichik mahsulotlari) sohalarida o'zini faol ko'rsatmoqda. SHGKM ning eklogik va gigiyenik sertifikatlari mavjud bo'lib, oziq-ovqat maxsulotlari va maishiy tovarlarini ishlab chiqarishda xavfsizlikni kafolatini beradi.

Bundan tashqari 2005 yil boshlarida dunyo bo'yicha lider deb tanilgan RW-TVV sertifikatsiya organi yordamida SHGKM da sifat menedjmenti ISO-90012000 yil turi kiritilib sertifikat olishga erishildi. Bugungi kunga kelib SHGKM da ishlab chiqarilayotgan polietilen granulalari Rossiya, Polsha, Vengriya, Avstriya, Gresiya, Ukraina, Litva, Turkiya, Eron, Pokiston, Qozog'iston, Xitoy va boshqa davlatlarga eksport qilinmoqda.

Inobatga olish kerakki, ichki hamda tashqi bozorda maxsulotlarga talab kundan-kunga ortmoqda. Hozirgi kunda zavodning polietilen mahsuloti 20 dan ortiq chet ellarga eksport qilinmoqda va Respublikaning barcha qayta ishlovchi zavodlarida samarali qo'llanilmoqda. 2010 yilning boshida yana 2 yillik hajmdagi polietilen mahsulotini ekspor qilishga shartnoma tuzilib imzolangan. O'tgan yilda viloyatdagi naqd pul muammosiga qaramasdan 3710 mln so'mlik ish haqi to'liq to'lab berildi. 1 ishchining 1 oydagi ish unumdorligi 4,97 mln so'm va 1 yilga 59,67 mln so'mni tashkil etadi.

Asosiy va yordamchi sexlar. Sho'rtan GKM qisqacha qilib aytadigan bo'lsak 2ta asosiy va 11 ta yordamchi sexlardan iborat. Birinchi asosiy texnologik sex bu-etilen sexi bo'lib, etilen ishlab chiqarishda xomashyo sifatida «Shurtan neft gaz» unitar shu'ba korxonasi tomonidan ta'minlanayotgan tabiiy xomashyo gazdan foydalaniladi.

Tabiiy gazning gaz separatsiyasi qurilmasi tarkibiga amin yordamida tozalash (700 zona), quritish, gaz ajratish (800 zona) bloklari kiradi.

Qurilma tabiiy gaz tarkibidagi uglerod oksidi CO_2 va vodorod sulfidi N_2S ni dietanolamin yordamida absorbsiya usuli bilan ajralib olish seometlarda adsorbsiya usuli bilan quritish va tozalangan tabiiy gazni reaktivatsiya usuli bilan gazlarga ajratish uchun mo'ljallangan. Tabiiy gazni ajratish jarayonida tovar mahsulotlar-metan, etan, prapan, butanlar, C_5 va yuqori fraksiyalar ajratib olinadi.

Metan tovar mahsulotining magistral gaz quvuriga yuboriladi. SHGKM da yoqilg'i gaz sifatida foydalaniladi. Etan piroliz jarayonida xom-ashyo sifatida ishlatiladi.

Prapan, butanlar, C_5 va yuqori fraksiyalar iste'molchilarga tovar mahsulot sifatida jo'natiladi.

Qurilmaning xom-ashyo bo'yicha quvvati yiliga 988000 t.

Qurilma 2001 yilda ishga tushirilgan. Yillik ish vaqti fondi 8000 soat.

Tabiiy gazning separatsiyasi qurilmasi quyidagi bloklardan tashkil topgan.

I. Tabiiy gazni aniq yordamida tozalash 700 zona.

II. Tabiiy gazni quritish va gazlardan ajratish 800 zona.

Tabiiy gazni amin yordamida tozalash bloki (700 zona) quyidagi bo'limlardan tashkil topgan.

1. Gaz xom ashyosini tayyorlash.

2. Nordon (kislotali) komponentlarni absorbsiya yo'li bilan ajratib olish.

3. Amin eritmasini sirkulyatsiyalash (aylantirib turish).

4. Nordon (kislotali) gazlarni desorbsiyalash.

5. Nordon (kislotali) gazlarni sovutish va ajratib olish.

6. Amin eritmasini tayyorlash va saqlash.
7. Ko'pirishga qarshi ishlatiladigan (modda) agent.
8. Korroziya (yemirilish) ingibitori.
9. Amin eritmasini drenaj qilish.

III. Tabiiy gazni quritish va gazlarga ajratish (800 zona) quyidagi bo'limlardan tashkil topgan.

1. Tozalangan tabiiy gazni dastlabki sovutish va separasiyalash.
2. Tozalangan tabiiy gazni quritish.
3. Gaz xom-ashyosidan kuchli sovutish va separasiyalash.
4. Metanni ajratish.
5. Etan xom-ashyosini ajratish.
6. Propanni ajratish.
7. Butanlarni va uglevodorod kondensatini ajratish.
8. Metanni siqib haydash.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan bo'limlardan tashqari qurilmada umumiy vazifalarni bajaruvchi qurilmalar mavjud.

1. Bug' va kondensat yig'ish.
2. Aylanma suv ta'minoti.
3. Nordon gaz, xo'l va quruq mash'ala moslamalarini yig'ish.
4. Uglevodorodlarni drenaj qilish.
5. Moy bilan ifloslangan oqovalarni yig'ish.
6. Xizmat ko'rsatuvchi (servis) stansiyalari.
7. Kanalizatsiya tizimlari mavjud.

Bug' generatorini xavfsiz ishlatish bo'yicha asosiy javobgar qozonxona rahbari hisoblanadi. Bug' generatoriga xizmat qilish uchun tegishli dastur bo'yicha o'qigan va qozonga xizmat qilish huquqini beruvchi kvalifikatsiya komissiyasi tomonidan berilgan guvohnomasi bo'lgan shaxslarga ruxsat beriladi. Texnologik jarayonni xavfsiz boshqarish uchun loyixa bo'yicha xavfsizlikni avtomatik rostlagich ko'zda tutilgan.

1.2. BGHT sexining umumiy texnologik jarayoni.


Shurtan gaz kimyo majmuasining asosiy sikllaridan biri bug‘-gaz va havo ta‘minoti sexi hisoblanadi. Korxonada sifatli mahsulot tayyorlash uchun ma‘lum miqdorda energiya resurslari talab qilinadi. Energiya resurslari bilan texnologik zonani bug‘-gaz va havo ta‘minoti sexi (BGHT) ta‘minlaydi. BGHT quyidagi energiya resurslari ishlab chiqaradi:

- turli bosimli bug‘,
- gazzimon azot,
- havo,
- mineralsizlashtirilgan suv,
- suyuq yoqilg‘ini yoqishga tayyorlash ,
- suvni sovutish.

Sex tarkibiga 5 ta qurilma kiradi.

- 1) Yuqori bosimli bug‘ ishlab chiqarish qurilmasi (markaziy qozonxona).
- 2) Suvni mineralsizlantirish xamda bug‘ kondensatni tozalash va to‘plash qurilmasi.
- 3) Azot va havo ishlab chiqarish qurilmasi.
- 4) Suvni sovutish qurilmasi (Gradirnya).
- 5) Yoqilg‘i tizimi va fakel xo‘jaligi qurilmasi. Texnologik jarayon uchun korxonada PA-6101 AX/BX markali qozondan iborat energoblok yordamida SHGKM extiyoji uchun yuqori bosimli bug‘ ishlab chiqarish urumdorligi $G = 270 \text{ t /soat}$ ga teng bo‘lib, 2001 yilda ishga tushirilgan. PA-6101 AX/BX energetik blok quyidagi jixozlardan tashkil topgan.

1. Yuqori bosimli qozon – 2 dona; 2. Ekonomayzer – 2 dona;
3. Ventilyator – 2 dona; 4. Bug‘ turbinasi – 2 dona;
5. Bug‘ qizdirgich – 2 dona; 6. Elektr dvigateli – 2 dona;
7. Tutun quvuri – 1 dona; 8. Havo fil‘tri – 2 dona;
9. Uzlaksiz yuvish sig‘imi (rezervuar) – 1 dona;



1.2-rasm. BGHT sexining issiqlik sxemasi

1 – Bug’ qozoni 2 – Deaerator 3 – Separator 4 – Kondensat baki 5 - Teploobmenniklar

Bug‘ generatorining (bug‘ qozoni) ta‘minot suvi qozonga tushguncha va mineralsizlantirish qurilmasiga agressiv gazlardan tozalanadi. Bu jarayon deaeratorida ta‘minot suvidagi erigan CO_2 va O_2 ni bug‘latish yordamida amalga oshiriladi. Tozаланган ta‘minot suvi ta‘minot nasosi orqali ekonomayzerga va so‘ngra bug‘ generatorining yuqori barabaniga uzatiladi. Qozon o‘txonasida yoqilg‘i yonish natijasida sirkulyatsion quvurlarda qozondagi suv qaynay boshlaydi va suv-bug‘li aralashma yuqorigi barabanda bug‘ va suvga ajraladi.

Tuyingan suv bug‘i yuqori barabandan gorizontal ilonsimon shakldagi bug‘ qizdirgichga o‘tadi. Bug‘ qizdirgichda bug‘ o‘ta qizish haroratigacha qizdiriladi. Suv bug‘i o‘ta qizigan bug‘ga aylanadi. Bunda uning harorati tuyinish haroratidan yuqori bo‘ladi. Yani $t_{o't} > t_t$.

Bug‘ qizdirgichdan o‘ta qizigan bug‘ yuqori bosimli umumiy bug‘ kollektoriga yuboriladi, va undan keyin texnologiya uchun yuboriladi.

Bug‘ generatorida talab etilgan haroratli bug‘ni olish uchun o‘txonada gazsimon, suyuq va yuqori qovushqoqli yoqilg‘i pastki va yuqorigi forsunkalar yordamida yoqiladi.

Ta‘minot suvi deaeratoridan t haroratva P bosim bilan elektr nasosi va turbininasosga beriladi. Shundan so‘ng rostlovchi klapan orqali ta‘minot suvi ekonomayzerga o‘tadi. Ekonomayzerda suvning harorati t_{pv} gacha ortadi va qozonning yuqorigi barabanga yo‘naltiriladi. Qozonning yuqori barabanidan chiqishda suv bug‘i mayda dispers namlikdan tozalanadi. O‘ta qizigan bug‘ umumiy bug‘ magistraliga beriladi.

Yoqilg‘i gaz qurilmaga startor orqali beriladi. Gaz quvuri bo‘ylab gaz to‘rsimon filtdan o‘tadi. To‘rsimon filtda xar xil zarralardan tozalanadi. Gazokrovoddagi va sarf o‘lchash asbobidan keyin gazni yoqish qurilmasi uchun otvod qilingan. Yonish jarayoni uchun havo purkovchi ventilyator yordamida o‘txonaga siqib uzatiladi. Qozon o‘txonasida yoqilg‘i yonishda ajraladigan issiqlik qozonning ekran sirtlariga beriladi. Shundan so‘ng tutun gazlari qozonning konvektiv qismini yuvib o‘tadi va tabiiy bosim farqi evaziga tutun quvuriga chiqariladi.

Reduksion sovutish qurilmasi (RSQ). Reduksion sovutish qurilmasi birlamchi bug‘ni sovutish va redusirlash orqali bug‘ kollektorida ishchi parametrlarni saqlab turish uchun xizmat qiladi.

RSQ 4 ta bug‘ kollektorini o‘z ichiga oladi.

- 1) O‘ta yuqori bosimli bug‘ kollektori (O‘YuBBK) ;
- 2) Yuqori bosimli bug‘ kollektori (YuBBK) ;
- 3) Past bosimli bug‘ kollektori (PBBK) ;
- 4) Bug‘ kondensat tizimi va suvni mineralsizlantirish qurilmasi.

Qurilmaning ishlab chiqarish unumdorligi $70 \text{ m}^3/\text{soatni}$ tashkil qiladi. Suvni mineralsizlantirish qurilmasi texnik suv bilan ta‘minlash , qozon ta‘minoti suvigacha tayyorlash va texnologiyaning mineralsizlantirilgan suvga bo‘lgan talabini ta‘minlashdan iborat.

Bug‘ kondensat tizimi : xom kondensat va vakuum kondensat tizimi bug‘ kondensat aralashmasini tuplash, ishlov berish va qayta bug‘ ishlab chiqarishga uzatish vazifasini bajaradi. Deaerasiyalangan suvni tayyorlash tizimi kondensat tarkibidagi erigan kislorod O_2 va karbonat angidrid SO_2 ni chiqrib yuborish orqali suvni tozalab beradi.

Chunki agressiv moddalar (O_2 va SO_2) metall sirtlarda va quvurlarda korrozion yemirilish hosil qilish mumkin.

Ta‘minot suvini tayyorlash va uzatish tizimi qozon uchun ta‘minot suvini tayyorlab beradi, yuqori bosimli qozon ta‘minot suvi pechlarda piroliz jarayonini amalga oshirishda ishlataladi.

Suvni mineralsizlantirish qurilmasidagi texnologik jarayonida suv mexanik aralashmalar va birikmalardan tozalanadi va mexanikaviy va kimyoviy tuzsizlantirish jarayoni quyidagi kutma-ketlikda amalga oshiriladi.

Obyektning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Mineralsizlantirish qurilmasi ;
- Xom kondensat tozalash tizimi;
- Vakuum kondensat tozalash tizimi;

- Deaerasiyalangan suvni tayyorlash tizimi;
- Qozon ta'minot suvini tayyorlash va uzatish tizimi ;
- Yuqori bosimli kondensat to'plash tizimi;
- Past bosimli kondensat to'plash tizimi;
- Vakuum kondensat to'plash tizimi;

Suvni mexanik tozalashda antrasit va kvarsli qum qatlamidan suvni filtrlash amalga oshiriladi. Suv kvarsli qumda va antrasit qatlamidan sizib o'tayotganda filtrlanadi, ya'ni mexanik iflosliklar filtr muxitida ushlab qolinadi va osmiga cho'kadi.

Muxanik tuzsizlantirishdan avval , suvga dastlabki ishlov beriladi. Birinchi navbatda suvdan erkin aktiv xlor chiqarib yuboriladi. Chunki aktiv xlor osmotik membranaga ta'sir qiladi. Erkin aktiv xlordan ozod qilinadi NaHCO_3 -780 ximiyaviy reagentni uzluksiz dozirovka qilish usulida foydalaniladi. Bu reagentning asosiy qismi natriy sulfatdan iborat. (NaHCO_3);




So'ngra qozonda va quvurlarda turli tuzlarning cho'kmasi (nakip) hosil bo'lishi xavfini oldini olish maqsadida anti kalant dozirovka qilinadi. Shundan so'ng patronli filtrlarga yuboriladi, bu filtrlarda 5 mikrondan kata o'lchamdagi zarrachalardan tozalanadi. Filtrda tozalangan suv teskari osmos qurilmasiga o'tadi, unda yuqori bosim ostida osmotik membranadan o'tkaziladi. Natijada toza suv va konsentrat hosil bo'ladi. Osmotik membrananing ishlash prinsipi suvning molekulyar to'rdan o'tkazish jarayoniga asoslangan. Membrana orqali suv o'tkazilganda nafaqat suv molekulasi tuzlarining molekulasi ham membranadan o'ta olmaydi. Membranadan o'ta olmagan suv va tuzli eritma konsentrat drenajga tashlanadi.

Kondensatni to'plash jarayoni kondensatdan bug'ni separasiya qilishga asoslanadi. Separasiyadan so'ng issiqlik almashinuvi qurilmasida kondensat sovutiladi. Kondensatga ishlov berish joylaridan tozalash va kimyoviy tozalashga asoslangan bo'lib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.




- 1) Kimyoviy usulda tuzsizlantirish.

- 2) Moylardan tozalash.
- 3) Komponentli filtrlarda tozalash.
- 4) Mexanik usulda tuzsizlantirish.
- 5) Kimyoviy reagentlar qo‘shimcha qilish.

Suvni tozalash bosqichlari.



Kimyoviy usulda tuzsizlantirish jarayoni ion almashinuvining prinsipiga asoslangan ya'ni annoit suvda erigan gidrookso gruppani anion tuzlari bilan almashtiradi.



Suvni turli moylardan tozalash aktiv ko‘mir yordamida absorsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Komponentli filtrlarda filtrlovchi muhit sifatida antrasit qum ishlatiladi. Komponentli filtr ma'lum bosim ostidagi filtrlovchi muhit po'lat idishlarga solish orqali hosil qilinadi.

Suv filtrlarda ishlov berilgach issiqlik almashinuv qurilmasida 20 °C gacha qizdiriladi. Issiqlik almashinuv qurilmasida suv bug' yordamida qizdiriladi, bug' sarfi 2741kg/soat suvning qurilmadagi sarfi esa 96kg/soat ni tashkil qiladi. Keyin ishlov berilayotgan suv oqimiga 0,5 m³ li sig'imli rezervuardan nasos-dozator orqali bisulfat natriyning 100 % konuentrasiyali miqdori dozirovka qilinadi. Bunda erkin aktiv xlorini bog'lash uchun 1mg/l uchun 7mg/l bisulfat natriy qo'shiladi. Kimyoviy reayentlarni suvga qo'shishdan maqsad teskari osmos qurilmasiga ishlov berish hisoblanadi. Kimyoviy reagentlar qo'shilgandan keyin ishlov beriladigan suv ikkilamchi tozalash bosqichiga yuboriladi.

Suvni sovutish qurilmasining ishlash jarayoni.

Suvni sovutish uchun issiqlik-massa almashinuvi qurilmasi deaeratordan foydalaniladi. Suvni deaeratorida sovutish bug‘latish orqali sovutish prinsipiga asoslangan. Ventilyatorli gradirnyada qarama-qarshi yo‘nalishda havo va suv oqimlari orasida issiqlik almashinuvi va suvning qisman bug‘lanishi natijasida suv soviydi.

Zavoddan texnologik jarayonda qizigan suv deaerator qurilmasini minora qismining yuqori tomonidan mayda tomchili oqimlar tomon pastga yo‘naltiradi. Sovutilgan suv balanddan pastga yomg‘ir shaklida havoni kesib o‘tadi va qisman bug‘lanishi natijasida soviydi. Sovutilgan suv gradirnyaning pastki basseyn qismida to‘planadi. Qurilmaning metall sirtlarida korroziyani oldini olish maqsadida suvga doimiy ravishda korroziya ingibitori qo‘shiladi.

Qurilmada sovutilgan suv yana zavodga sovutilgan agent sifatida qaytariladi. Quyidagilar suv yordamida sovutiladi:

- barcha mexanik qurilmalar , yani moylash tizimini va podshimnik moylarini sovutish, (nasoslar, kompressor va turbinada)
- issiqlik almashinuv qurilmasida xladoagent sifatida;

Suv xarorati $t=40\text{ }^{\circ}\text{C}$ va bosimi $P=250\text{ kPa}$ bilan texnologik zonadan gradirnyaga qaytib keladi va kollektordan 5 ta quvurlar bo‘ylab taqsimlanadi. Quvurlarning diametri $\varnothing 30$ quvurlar orqali suv gradirnyaning yuqori qismidagi 5 suksiyaga beriladi. Bu yerda suv quvurlar va forsunkalarga taqsimlanadi. Shundan so‘ng suv to‘plagich va $t_c=28^{\circ}\text{C}$ harorat bilan yig‘iladigan rezervuarga to‘planadi.

Suv yig‘adigan rezervuar bevosita gradirnya korpusi ostida joylashgan va inshootning markaziga tomon qiyalik bilan o‘rnatilgan. Gradirnya yuqori f.i.k. ka ega bo‘lgan suv ushlagich moslamasi bilan ta‘minlangan va umumiy yo‘qotiladigan suvni miqdorini umumiy sarfga nisbatan 0,005% gacha ushlab turgich imkonini beradi. Sovutish agentini SHGXX iste‘molchilariga yo‘naltirish uchun «tug‘ri» va «teskari» quvurlar tizimi ishlatiladi. Zavodni sovutuvchi suv bilan ta‘minlash uchun quyidagi yordamchi qurilmalar ishlatiladi:

- 1) «To‘g‘ri» va «teskari» quvurlar tizimi
- 2) Sovigan suvni uzatish nasoslari
- 3) Qaytgan suvni filtrlash uzeli
- 4) Zaxira suv nasoslari
- 5) Korroziya ingibitorini qo‘shish moslamalari
- 6) Biosid kritik qurilmasi
- 7) Oltin gugurt kislotasi bloki
- 8) Avtomatik nazorat qilish asboblari
- 9) Elektr ta‘minot qurilmalari.

Aylanma suv ta‘minoti tizimining xarakteristikalarini. Suvni sovutish qurilmalari Sho‘rtan gaz kimyo majmuasidagi bug‘-gaz va havo ta‘minoti (BGHT) sexining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ventilyatorli gradirnya «Balcke Duvv» kompaniyasining mahsuloti bo‘lib, 5 ta seksiyadan va poliefirli stekoplastikadan yasalgan majburiy tyagaga ega. Issiqlik almashinish yuzasi to‘liq qurilmaning korpusi chegarasida joylashtirilgan. Issiqlik almashinish sirtlari uch qatlamli yuqori samarali polietilen to‘ldirgich «Twickle-Bloc» tayyoyrlangan. Suvni sovutish qurilmasi (gradirnya) texnologik jarayonlarda ishlatilgan suvni sovutish uchun muljallangan qurilma hisoblanadi va sovutilgan suv SHGKM obyektlarida sovutish agenti sifatida ishlatiladi.

SHGKM da sovutish qurilmasi 2001 yilda ishga tushirilgan. Suvni sovutish qurilmasi, tarkibiga quyidagilar kiradi.

- 1) Gradirnya;
- 2) Suv to‘planadigan rezervuar;
- 3) «To‘g‘ri» va «teskari» oqim quvurlar tizimi;
- 4) Sovituvchi suvni uzatish nasoslari;
- 5) Sovituvchi suvni filtrlash uzeli;
- 6) Zaxiradagi nasoslari ;
- 7) Oltin gugurt kislotasi bloki
- 8) Korroziya ingibitori bloki;

- 9) Biosid yuborish bloki;
- 10) Umumiy foydalanish tizimi;

Sho‘rtan gaz kimyo majmuasining yoqilg‘i tizimi. Yoqilg‘i ta’minoti tizmi Sho‘rtan gaz kimyo majmuasida asosiy tizimlardan biri hisoblanadi.

Yoqilg‘i tizimi quyidagilar uchun mo‘ljallangan :

- 1) Yoqilg‘i gazini namlikdan va birikmalardan tozalash.
- 2) Yoqilg‘ini rostlash va taqsimlash.
- 3) Kondensasiyalangan mahsulotlarni utilizasiya qilish.
- 4) Sresifikasiyaga mos ravishda yoqilg‘ini tayyorlash.

Yoqilg‘i tizimi korxonada turli komponent va agregat tarkibidan iborat bo‘lgan Yoqilg texnologik oqimlardan tashkil topadi: Etilen qurilmasi, buten qurilmasi – polietilen sexi.

Yoqilg‘i gaz turli gazsimon komponentlar aralashmasidan iborat (vodorod, metan). Yoqilg‘i gazi suyuq va gazsimon uglevodorodlar to‘planishi, ajralishi va xom ashyo aralashmasidagi yengil frasiyalarni bug‘lanishi natijasida hosil bo‘ladi. Yoqilg‘i gazi iste’molchi obyektlarga kollektor tarmog‘i va quvurlar orqali yuboriladi. Suyuq yoqilg‘i C_4-S_5 frasiyali suyuq uglevodorodlar aralashmasidan iborat bo‘lib, benzin qoldiqlari va past haroratda qaynaydigan komponentlardan tashkil topadi. Yuqori molekulali polimer-polietilenning ishlab chiqarish chiqindisi yuqori qovushqoq yoqilg‘ining asosiy manbasi hisoblanadi. Suyuq va yuqori qovushqoq yoqilg‘ini iste’molchilarga uzatish uchun quvurlar va nasoslar o‘rnatiladi. O‘ta qizdirilgan bug‘ texnologiyaning zarur joylarida ishlatish uchun yuqori bosimli umumiy bug‘ kollektoriga beriladi.

2-bob. Texnologik jarayonlar va texnologik ehtyoj bug‘ qozoninig samaradorligini oshiruvchi omillar va sxemalarning hisobi

2.1 Texnologik jarayonning ta’rifi, texnologik sxemaning hisobi.



Bug‘ generatorini ta’minlovchi suv «Demineralisizlantirish», qurilmasida qozongacha tayyorlashdan o‘tayotib deaerasiyalash qurilmasida kislorod va karbonat angidrid agressiv (CO_2 va O_2) gazlardan tozalangan va ta’minlash nasosi bilan xaydalgan suv ekonomayzerda tutun quvuriga borayotgan tutun gazlari issiqligi hisobidan qo‘shimcha qizdirilib bug‘ generatorlarining yuqori barabaniga uzatiladi.

Aylanma quvurlarga beriladigan (qozon o‘txonasida yoqilg‘ining yonishi natijasida hosil bo‘lgan) issiqlik hisobiga qozon suvi qiziydi va uning qaynashi natijasida hosil bo‘ladigan bug‘-suv aralashmasi yuqoriga harakatlanib yuqori bug‘ barabaniga kutariladi va bu yerda bug‘ va suvga ajraladi. To‘yingan suv bug‘i yuqori bug barabanidan gorizonta, burama (zmeyevik) shaklidagi bug‘ qizdirgich va quritgichga kiradi, bu yerda (o‘txonada gazning yonishidan hosil bulgan tutun gazi issiqligi hisobiga), berilgan haroratgacha qiziydi ya’ni uning harorati to‘yingan bug‘ haroratidan yuqori buladi. Bug‘ning bir qismidan o‘z ehtiyoji uchun foydalaniladi (ta’minlash nasoslari va havo ventilyatorlarining bug‘ turbinalari uchun).

Bug‘ generatori o‘txonasida kerakli miqdorda issiqlik olish uchun yoqilg‘i gazi (ikki gorelkada yuqori va pastki), hamda yuqori va pastki gorelkalariga o‘rnatilgan forsunkalarda suyuq va yuqoriqovushqoqli yoqilg‘ilar (faqat qo‘shimcha gaz yoqilg‘isi yoqish bilan) yoqiladi. Yuqoriqovushqoqli (monomolekulyar) yoqilgi yuqorigi va pastki gorelkalarda suyuq yoqilg‘i esa faqat yuqorigi gorelkada yoqiladi.

Issiqlik ajralishi bilan boradigan yonishning asosiy kimyoviy reaksiyalari:





Mavjud yoqilg'ilarni yoqishda aniq miqdorda issiqlik ajraladi.

$$\text{Gaz OBSL} - Q_{\text{H}}^{\text{p}} - 39.5 \text{ MJ/m}^3 = 9427 \text{ kcal/nm}^3 \quad (2.4)$$

$$\text{Gaz 4«A»} - Q_{\text{H}}^{\text{p}} - 23,3 \text{ MJ/m}^3 = 5560 \text{ kcal/nm}^3 \quad (2.5)$$

$$\text{Gaz 4«B»} - Q_{\text{H}}^{\text{p}} - 25,4 \text{ MJ/m}^3 = 6062 \text{ kcal/nm}^3 \quad (2.6)$$

$$\text{Gaz 4«C»} - Q_{\text{H}}^{\text{p}} - 28,5 \text{ MJ/m}^3 = 6802 \text{ kcal/nm}^3 \quad (2.7)$$

$$\text{Suyuq yoqilg'i} - Q_{\text{H}}^{\text{p}} - 46,6 \text{ MJ/m}^3 = 11092 \text{ kcal/nm}^3$$

$$\text{Yuqoriqovushqoqli yoqilg'i} - Q_{\text{H}}^{\text{p}} - 46,6 \text{ MJ/m}^3 = 11092 \text{ kcal/nm}^3$$

FA-6005 deaerator blokidagi harorati $t=108^\circ\text{C}$ va bosimi $P=160 \text{ kPa}$ bo'lgan demineralizlantirilgan suv bug' generatorlarini suv bilan ta'minlovchi elektr nasosining GA-6003S surish kismiga yoki GA-6003 turbo nasosining so'rish qismiga kelib tushadi. Nasoslardan chikishdagi ta'minot suvining bosimi $P=6090 \text{ kPa}$, sarfi $F=357 \text{ m}^3/\text{soat}$ bug' generatorlariga uzatiladi. Bu yerda ta'minot suvi tarmogida joylashgan FCV – 61-01 rostlovchi klapani orqali rostlanib $R=4800 \text{ kPa}$ bosim bilan BH-6106 ekonamayzeriga beriladi va o'zining haroratini chiqib ketayotgan tutun gazlarining issiqligi hisobiga $t_{\text{p.v.}}=182^\circ\text{C}$ gacha ko'tarib $P=4500 \text{ kPa}$ bosimi bilan qozonning BF-6101 yuqori bug' barabaniga tushadi; barabandagi suv sathi baraban o'rta qismidan yuqori bo'lishi kerak (30-50 mm H_2O , 35-50 % LT-61_01 DCS uchun).

Qozonning suv konturi buylab suvning tabiiy aylanishi hisobiga suv bug'i (to'yingan) yuzaga keladi. Suv bug'i qozonning yuqori barabanidan chiqishida setkali tutkich (ulovitel) orkali mayda zarrachali namlikdan tozalanadi. Tuyingan bug' tarmog'ida PA-6101A/B qozonlarining BF-6103 bug' qizdirgich va quritgichgacha tahlil olish nuqtasi o'rnatilgan. PA-6101A/B qozonlaridagi to'yingan bug'ning quyidagi ko'rsatgichlarini: rH, elektr o'tkazuvchanligi, kremnezem miqdori, Fe_3 miqdori, PO_3 fosfat miqdorlarini aniqlash uchun tahlil olish nuqtasi zarur. Keyin hosil bo'lgan bosimi $R=4433$

kPa va harorati $t=258\text{ }^{\circ}\text{C}$ bo'lgan tuyingan suv bugi BF-6103 bug' qizdirgich va quritgichga kelib tushadi va bu yerda (utxonada yonib chiqib ketayotgan tutun gazi harorati hisobiga) harorati $t=370-390\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilib (bug' qizdirgich va quritgichdagi quvurlar jamlamasi orqali o'tishi natijasida) bosimi $P=3900-4137\text{ kPa}$ ga tushadi va o'ta qizigan bug'ga aylanadi. (ya'ni bug'ning harorati tuyinish haroratidan yuqori bo'ladi).


O'ta qizigan bug' umumiy yuqori bosimli (YUB) bug' magistraliga uzatiladi va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlatiladi, bug'ning bir qismi o'z ehtiyojlari uchun ham ishlatiladi. (havo haydovchi ventilyatorlar bug' turbinalariga).Qurilmaga yoqilg'i gazi FA-6803 separatoridan keladi. IF-9 gaz quvuri orqali kelayotgan yoqilg'i gazi setkali filtrdan o'tib, begona zarrachalardan tozalanadi. PA-6101 A/B qozonlariga boradigan IF-9 yoqilg'i gaz tarmog'ida joylashgan V-701 zadviijkalaridan keyin S-705 A,V mexanik filtrlariga parallel ravishda qo'shimcha S-705 C,D mexanik filtrlari o'rnatildi.PCV-61160/61260 o'z-o'zini rostlovchi klapandan oldin S-705 A,B,C,D mexanik setkali filtrlaridan keyingi flanesli birikmaga setka o'rnatildi.

Qozon qurilmasidan foydalanish jarayonida filtrlovchi elementlarning ifloslanishi kuzatilgan. Bu muammoni qo'shimcha filtr o'rnatib, ularni navbatma-navbat tozalash bilan bartaraf etiladi.Bosimlar farqi 20 kPa ga yetganda filtrlarni tozalash ishlari amalga oshiriladi. Qozonlarni ishlatish vaqtida PCV-61160/61260 o'zini-o'zi rostlovchi klapanlarining katridj filtrlari ifloslanishi kuzatilgan, bu qozonlarni xalokatli tuxtashiga olib kelgan. Shu sababli katridj filtrlar ifloslangan paytda PA-6101 A/B qozonlarini ishdan tuxtatmagan xolda katridj filtrlarini tozalashga imkoniyat yaratish uchun katridj filtrlarini kapillyar tarmog'iga baypas tarmog'i urnatilgan. Gorelka oldi yoqilg'i gaz tarmog'iga o'rnatilgan PI-61161/61261 manometrlaridagi bosim ko'rsatkichi ($100-105\text{ kPa}$) gacha pasaysa baypas quvuridagi ventil ochiladi va PCV-61160/61260 o'z-o'zini rostlovchi klapanlariga o'rnatilgan katridj filtrlari impuls quvurlaridagi ventillar yopiladi. So'ngra filtrlar yechib olinib

erituvchi suyuqliklar (benzin, gazkondensat) yordamida tozalanadi. Keyin filtrlar o'z joyiga o'rnatilib, o'z-o'zini rostlovchi klapanlarning impulsli quvurlaridagi ventillar ochiladi va baypas tarmog'idagi ventil yopiladi. Yoqilg'i gaz bosimini 125kPa gacha pasaytirilib, shu bosim ushlab turiladi. PSL-61_11, PSH-61_11 datchiklari bilan yoqilg'i gazning bosimi nazorat qilib turiladi, agar bosim ko'rsatkichi belgilangan norma (80-165 kPa) dan oshsa yoki kamaysa gaz bosimining past/yuqori himoya tizimining (blokirovka) aktivlashishiga olib keladi. FCV-61_11 rostlovchi klapanlari orqali yoqilg'i gazining sarfi rostlab turiladi. Gaz quvuriga FT-61_03 sarf ulchagichidan keyin qozon gorelkalarini yoqish uchun mo'ljallangan ut oldiruvchi moslamaga yoqilg'i gazi boradigan 1" quvuri o'rnatilgan. Gazning yonishi uchun havo zarur bo'ladi. Havo atrof muhitdan olinadi va FD-6101Ax/Vx havo setkali filtrlari yordamida har xil zarrachalardan (changdan) tozalab o'tkaziladi. Sungra havo GBM-6101 ASX/BSX havo ventilyatori orqali qozon o'txonasiga haydaladi. Ventilyatordan oldin va keyin urnatilgan shiberlar bilan yonish uchun havo berilishi boshqarib turiladi. Qozonning o'txonasida yoqilg'i gazining yonishi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlik uning ekran yuzasiga uzatiladi. Sungra tutun gazi (yonish mahsulotlari) qozon konvektiv qismi (bug' qizdirgich, konvektiv quvurlar jamlamasi, ekonomayzer) dan o'tib CA-6101 tutun quvuri orqali ta'biy tortish kuchi hisobiga atmosferaga chiqarib yuborilishi ko'zda tutilgan. Reduksion sovutish qurilmasi (RSK)da topshiriq (ustavka) kursatkichi $P=440-490\text{kPa}$ ga quyiladi bunda past bosimli bug'ni PV-61012 klapani yordamida siqib utkazish yo'li bilan tuyingan bosimli bug' hosil qilinadi. TV-61014 klapani yordamida topshiriq (ustavka) kursatkichini $T=150-170\text{ }^{\circ}\text{C}$ ga urnatib, ta'minot suvini purkab turish bilan kerakli harorat ushlab turiladi.

Qozon qurilmasini ko'rikdan o'tkazayotganda tekshirilishi lozim:

- qozonning ichki tomoni qasmoqdan va shlamdan tozalanganligi.
- qozonning barabanida va boshqa elementlarida ko'rinadigan nuqsonlar yo'qligini (yoriq, ajralish, qavatlar ko'chishi va b.q.);



2.1 – rasm. – PA – 6101 bug‘ qozoni umumiy joylashish chizmasi

1 – PA – 6101 bug‘ qozoni

2 – PA – 6101 bug‘ qozoni barabani

3 – Ekonomayzer

4 – Bug‘ turbinasi

5 – Elektro dvigatel

6 – Qozon nazoratchilari xonasi

7 – Tutun chiqarish turbasi

8 – Taminot suvi nasoslari

9 – Xavo qizdirgichlar

10 – Qo‘shimcha xavo qizdirgich

Hozirgi vaqtda yoqilg'i energetik resurslarni kamayib borayotganligini hisobga olib har bir korxona energetik resursni tejash shu bilan bar qatorda korxona iqtisodiy mablag'ini tejash maqsadida turli xildagi ratsionalizatorlik takliflarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq yetish muxum masala hisoblanadi. Quyidagi ratsionalizatorlik taklifi korxonaga kapital mablag'ni tejash imkonini beradi. Rekupirativ xavo qizdirgichni energiya taminoti uchun xizmat qiluvchi bug' turbinasi past bosimli bug' chiqarish quvuri yunalishidan $5\text{kgk/s} \cdot \text{m}^2$ xarorati $170 - 190^\circ\text{C}$ ishlab bo'lingan bug'ni 20 diametrli quvurlar tizimidan tashkil topgan qo'shimcha xavo qizdirish rekupirativ uskunasi bug' orqali qozon o'txonasiga berilayotgan xavoni $2 - 3^\circ\text{C}$ ga qushimcha isitish orqali yoqilg'i energetik resurs tejatishini ko'rib chiqamiz:

$$b_{\text{e}}^{\text{uu}} = 1\text{m}^3 = 200\text{cy}\text{m} \quad (2.8)$$

Har bir qozon uchun B_{e}^{uu} sarfi

$$B_{\text{e}}^{\text{uu}} = 13000\text{m}^3 / \text{coam} \quad (2.9)$$

Har bir qozon uchun o'rnatilgan qo'shimcha xavo qizdirgich orqali iqtisod qilinadigan yoqilg'i energetik resurs tejatishiga olib keladi

$$b_{\text{e}}^{\text{uu}} = 250\text{m}^3 / \text{coam} \quad (2.10)$$

Demak bir kunlik iqtisod qilinadigan yoqilg'ining sarfi quyidagicha:

$$B_{\text{e}}^{\text{uu}} = 24 \cdot 250 = 6000\text{m}^3 / \text{coam} \quad (2.11)$$

Bir oylik tejalgan yoqilg'i energetik resursni $B_{\text{e}}^{\text{uu}} = 6000\text{m}^3 / \text{coam}$ deb olsak 30 kun davomida tejalgan shartli yoqilg'i quyidagicha:


$$B_{\text{e}}^{\text{uu}} = 30 \cdot 6000 = 180000\text{m}^3 / \text{coam} \quad (2.12)$$

Agarda biz kapital mablag'ini nazarda tutsak

$$B_{\text{e}}^{\text{uu}} = 6000 \cdot 200 = 1200000\text{cy}\text{m} \quad (2.13)$$

Shartli yoqilg'ining bir yillik tejatishi :

$$B_{\text{e}}^{\text{uu}} = 1200000 \cdot 365 = 438000000\text{cy}\text{m} / \text{yil} \quad (2.14)$$



2.2 – rasm. Bug' qozoniga qo'shimcha xavo qizdirgich qo'yish chizmasi

- 1 – PA – 6101 bug' qozoni
- 2 – PA – 6101 bug' qozoni barabani
- 3 – Ekonomayzer
- 4 – Bug' turbinasi
- 5 – Elektro dvigatel

- 6 – Qozon nazoratchilari xonasi
- 7 – Tutun chiqarish turbasi
- 8 – Taminot suvi nasoslari
- 9 – Xavo qizdirgichlar
- 10 – Qo'shimcha xavo qizdirgich

2.2. Reduksion sovitish qurilmasi, rekuperativ havo qizdirgich hisobi.

Reduksion-sovutish qurilmasi (RSK) bug‘ kollektordagi bug‘ni sovutish va kamaytirib o‘tkazish yo‘li bilan ishchi parametrlarini ushlab turish uchun muljallangan.

Reduksion-sovutish qurilmasi (RSK) 4ta bug‘ kollektorini o‘z ichiga oladi.

- O‘YUB (o‘ta yuqori bosimli) bug‘ kollektori – $P=11800\div12400$ kPa,
 $T=495\div510$ °C
- YUB (yuqori bosimli) bug‘ kollektori – $P=3900\div4137$ kPa,
 $T=370\div390$ °C
- PB (past bosimli) bug‘ kollektori – $P=500\div570$ kPa,
 $T=150\div190$ °C
- Tuyingan bosimli bug‘ kollektori – $P=440\div490$ kPa,
 $T=150\div170$ °C

Regulyator ko‘rsatgichini 11800-12400kPa ga o‘rnatib, o‘ta yuqori bosim (UYUB) li ortiqcha bug‘larni PV-61002 klapani yordamida siqib utkazish yo‘li bilan RSK (reduksion sovutish qurilmasi) da yuqori bosim (YUB) li bug‘ tayyorlanadi. TV-61004 klapani yordamida topshiriq (ustavka) $T=370\div390$ °C ga quyilib ta‘minot suvini purkash yo‘li bilan kerakli harorat ushlab turiladi. Agar harorat $T=425$ °C dan oshsa, TS-61019 blokirovkasi ishga tushib PV-61002 klapanini joyida tuliq yopadi. Monitorda PV-61002 klapani «AVTO» holatdan «Man»holatga o‘tkaziladi va PV-61002 klapani yopiladi. Bu vaqtda o‘ta yuqori bosimli bug‘ kollektoridagi bosimni PV-61001 klapani yordamida FG- 6103 sundirgich orqali atmosferaga chiqarib yuboriladi. Harorat meyorlashib monitordagi signal uchgandan keyin blokirovkadan chiqarilib (Rezet) qilinadi. PV-61002 klapanini «Man»holatida asta–sekinlik bilan ochib boshlanadi bu paytda kollektordagi bosim tusha boshlagandan

keyin FG- 6103 sundirgich «AVTO» holatda yopa boshlaydi va kollektoridagi bosim barqaror holatga keltiriladi, PV-61002 klapani «Man»xolatidan «AVTO» holatga utkaziladi hamda unga kerakli topshiriq beriladi. Yuqori bosimli bug‘ kollektorida bosim oshib ketsa ortiqcha yuqori bosim PV-61003 klapani yordamida FG- 6104 sundirgichi orqali atmosferaga chiqarib yuboriladi bundan tashqari yuqori bosimli bug‘ kollektorida bosim $P=4300$ kPa dan oshib ketsa PSV-6111/S saqlash klapanlari yordamida atmosferaga chiqarib yuboriladi.

Reduksion sovutish qurilmasi (RSK)da ustavkasi $P=500\div 570$ kPa ga quyilgan PV-61004A/V klapanlari yordamida yuqori bosimli bug‘ni siqib utkazish yo‘li bilan past bosimli bug‘ tayyorlanadi. PS-61004 regulyatori ishchi holatiga chiqish signali 50% gacha bulganda PV-61004A klapani ishda bo‘ladi, chiqish signali 50% dan oshgandan sung PV-61004V klapani ishga tushadi. Ustavkasi $T=150\div 190$ °C ga quyilgan TV-61006/61007 klapanlari yordamida ta‘minot suvini purkab berish bilan kerakli harorat ushlab turiladi. Agarda harorat $T=220$ °C dan oshsa TS-61018 blokirovkasi ishlab ketib, PV-61004A/V klapanlarini joyida tuliq yopadi. Monitordagi PV-61004A klapani «AVTO» xolatdan «Man»xolatga o‘tkaziladi va PV-61004A/V klapanlari yopiladi. Harorat meyorlashib monitordagi signal uchgandan keyin blokirovkadan chiqarilib (Rezet) qilinadi. PV-61004A/V klapanlari «Man» xolatida asta – sekinlik bilan ochib boshlanadi va kollektoridagi bosim barqaror holatga keltiriladi, PV-61004A/V klapanlari «Man» holatidan «AVTO» holatiga utkaziladi hamda unga kerakli topshiriq beriladi. Past bosimli bug‘ kollektorida bosim oshib ketsa ortiqcha yuqori bosim RV-61006 klapani yordamida FG- 6105 sundirgich orqali atmosferaga chiqarib yuboriladi. Bundan tashqari past bosimli bug‘ kollektorida bosim $P=1000$ kPa dan oshib ketsa PSV-6112A/V/S saqlash klapanlari yordamida atmosferaga chiqarib yuborish ko‘zda tutilgan.

Reduksion sovutish qurilmasi (RSK)da topshiriq (ustavka) kursatkichi $P=440-490$ kPa ga quyiladi bunda past bosimli bug‘ni PV-61012 klapani

yordamida siqib utkazish yo‘li bilan tuyingan bosimli bug‘ hosil qilinadi. TV-61014 klapani yordamida topshiriq (ustavka) kursatkichini $T=150-170^{\circ}\text{C}$ ga urnatib, ta‘minot suvini purkab turish bilan kerakli harorat ushlab turiladi

2.1 – jadval

PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug‘ isitish qozoni texnik tavsifi:

Nomlanishi	Yoqilg‘i	
	Gaz	mazut
Nominal issiqlik ishlab chiqarilishi, Gkal/soat	40	35
Suvning bosimi, kgk/sm^2		
Hisobiy bosim	20	
Qozon qurilmasidan chiqishidagi minimal bosim	8	
Suvning harorati, $^{\circ}\text{C}$		
Kirishda	70	
Chiqishda	150	
Suvning sarfi, m^3soat	135	135
Gidravlik qarshilik, kgk/sm^2	1,8	
Chiquvchi gazlar harorati, $^{\circ}\text{C}$	162	250
Nominal yuklamadagi FIK (bruttoda), %	912,08	87,91
Yoqilg‘i sarfi, m^3soat (kgsoat)	5230	4355
O‘txonadagi issiqlik kuchlanishi xajmi, 10^3 kall/(m^3soat)	550	500
Yonish kamerasi xajmi, m^3	80	
Qizdirish yuzasi, m^2	128,6	
Radiasion konvektiv		


Tutun-gaz chiqish yo'lidagi qarshilik, ksk/sm ²	106,9	87,6
Asosiy qiymatlar, mm		
Yonish kamerasi chuqurligi	2240	
Yonish kamerasi kengligi	4032	
Konvektiv shaxta chuqurligi	2016	
Konvektiv shaxta kengligi	4032	
Kolonna o'qi bo'yicha kenglik	4740	
Kolonna o'qi bo'yicha chuqurlik	4970	
Yuqori qismdagi obmurovka nuqtasi	11700	
Gabarit kengligi	9100	9350
Gabarit uzunligi	8130	8300
Gabarit balandligi	12240	13970*
Og'irlik, t		
O'rnatiladigan blokning og'irligi	8,4	
Qozonni o'rovchi material	33,35	
Zavoddagi ko'rsatma bo'yicha	54,3	

1. Agarda qozon mazutda ishlasa qozondan chiqayotgan suvning harorati 150 °S bo'ladi;

2. Hisobiy yoqilg'i: M-100 markali mazutning issiqlik ajralishi $Q_k^m = 9170$ kall/kg, Sho'rtan gazida $Q_k^m = 8472$ kall/m³.

3. Havoning ortiqcha koeffitsiyenti $\alpha_{yo} = 1,1$, konvektiv bo'g'irlarda $\alpha_{chiq.gaz.} = 1,15$.

4. PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi qozonining o'lchami: kengligi – 9250, uzunligi – 8710, badandligi – 14710 mm.



2.3 –rasm. Rekonstruksiya qilingan bug' qozoni

2.2-Jadval

Havo qizdirgichning hisobi, tavsifi va o'lchamlari

Kattaliklar nomlanishi	Belgilanishi	Birligi	kattalik
Quvur tashqi diametri	D_{tashqi}	M	0,040
Quvur ichki diametri	D_{ichki}	M	0,037
Qatordagi quvurlar soni (havoni harakatlanishi bo'yicha)	Z_1	Dona	100
Havoni harakatlanishi bo'yicha qator soni	Z_2	Dona	27
Quvurning ko'ndalang oraliq masofasi	S_1	M	0,054
Quvurning bo'ylama oraliq masofasi	S_2	M	0,042
Quvurning ko'ndalang oraliq nisbiy masofasi	S_1/d	-	1,35
Quvurning bo'ylama oraliq nisbiy masofasi	S_2/d	-	1,05
Quvurlarning joylashashi	-	-	SHaxmatli
Quvurni gaz bilan yuvish tavsifi	-	-	Bo'ylama
Quvurni havo bilan yuvish tavsifi	-	-	Ko'ndalang
Quvurlar soni,	Z_0	Dona	2700
Gazlar o'tishi uchun qirqim	F_g	m^2	2,9
Havoni harakati bo'yicha havo qizdirgich kengligi	b	m	5,72
Havo harakatlanishi bo'yicha bitta quvurning balandligi (zavoddagi qiymat bo'yicha)	h_x	M	2,39
Havo harakatlanishi bo'yicha quvurning yuzasi (zavoddagi qiymat bo'yicha)	F_v	m^2	4,1108
Havo qizdirgichning qizdirish yuzasi	H_{vp}	m^2	2340,3

Yoqilg'ini yonishi natijasida ajralib chiqqan issiqlik hisobiga iste'mol suvidan bug' hosil qilinadi va bug' maxsus quvur orqali maxsus bug' turbinasiga beriladi yordamchi uskuna vazifasini o'taydi.

Bug' generatorda yondirilgan 1 kg qattiq va suyuq yoqilg'i yoki 1 m³ gaz uchun bo'lgan issiqlik muvozanatini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$Q_{yo}^i = Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 + Q_5 + Q_6 \quad (2.15)$$

bunda Q_{yo}^i - o'txonada 1 kg (yoki 1 m³) yoqilg'idan hosil bo'lgan issiqlik miqdori, MJ (kg) yoki MJ (m³), Q_1 - bug' generatorda foydali ishlatilgan issiqlik miqdori, Q_2, Q_3, Q_4, Q_5, Q_6 - tutun bilan, yoqilg'ining kimyoviy, mexanik chala yonishi tufayli, bug' generator sirti sovushi va chiqarib tashlangan shlak bilan yo'qotilgan issiqliklar miqdori.

Ishchi yoqilg'ining to'la issiqlik miqdorini quyidagi ifodadan aniqlash mumkin.

$$Q_q^i = Q_{t.k} + Q_{yo} + Q_b \quad (2.16)$$

bunda Q_q^i - yoqilg'ining quyi yonish issiqligi; $Q_{t.k}$ - o'choqqa tashqaridan havo bilan kirgan issiqlik (havo bug' generator agregatining tashqarisidan qizdirilsa); Q_{yo} - yoqilg'ining fizik issiqligi; Q_b - bug' bilan kirgan issiqlik (mazut ishlatilganda);

Quvurli havo qizdirgichlar bo'ylama quvurlardan tuzilgan bo'lib, gaz yo'nalishida o'rnatiladi. Havo shahmatli quvurlar yig'masi yuzasini yuvib o'tadi. Havoning harakati 2 martadan kam emas.

Gazga parallel o'rnatilgan quvur sonini hisob asosida topamiz:

$$Z_0 = Z_1 \cdot Z_2 = 100 \cdot 27 = 2700 \quad (2.17)$$

Gazning oqimi bo'yicha yuza quyidagicha:

$$F_g = Z_0 \cdot \frac{\pi \cdot d_{ich}^2}{4} = 2700 \cdot \frac{3,14 \cdot 0,037^2}{4} = 2,9 m^2 \quad (2.18)$$

Havoni oqim bo'yicha yuzasi (zavoddagi berilgan tuzilishi bo'yicha):

$$F_v = h_x \cdot (b - Z_1 \cdot d) = 2,39 \cdot (5,72 - 100 \cdot 0,04) = 4,1108 m^2 \quad (2.19)$$

Havo qizdirgich yuzasi:

$$H_{vp} = \pi \cdot d_{sr} \cdot h_{tr} \cdot Z_0 = 3,14 \cdot 0,0385 \cdot 3 \cdot 2,39 \cdot 2700 = 2340,3 m^2 \quad (2.20)$$

2.3-Jadval

Yuqoridagi hisob ishidan kelib chiqib, havo qizdirgich issiqlik hisobi uchun jadval tuzamiz:

Kattaliklarning nomlanishi	Belgila nishi	Bir Lik	Kattalik
Havo qizdirgichgacha gazning harorati	ϑ''_{ek}	°C	302
Havo qizdirgichdan keyingi gazning harorati	ϑ_{ux}	°C	150
Havo qizdirgichgacha havoning harorati	t'	°C	60
Havo qizdirgichdan keyingi havoning harorati	$t''_h = t_{iss.h.}$	°C	250
Gazlar xajmi o'rtacha bo'lganda ortiqcha havo koeffitsiyenti	V_g	m ³ /kg	4,17
Havoning nazariy xajmi	V^o	m ³ /kg	2,65
Havo qizdirgichdagi nazariy va amaliy havo xajmi bog'liqligi, talab bo'yicha	β''_{hq}	-	1,06
Nazariyada resirkulyatsiya qiluvchi havo xajmini ulushi	β_{hq}	-	0,177
Suv bug'ining xajmiy ulushi	$r_{H O}$	-	0,1641
Havo qizdirgich issiqlik qabul qilish balansi	Q^b_{hq}	Kkal\kg	210,1

Havo va gaz tezligini topamiz

$$\begin{aligned}
 w_g &= \frac{B_r \cdot V_r}{3600 \cdot F_g} \cdot \frac{\vartheta_{\text{sm}} + 273}{273} = \frac{16217 \cdot 4,17 \cdot (226 + 273)}{3600 \cdot 2,9 \cdot 273} = 11,8 \text{ m/s} \\
 \vartheta_{vp} &= \frac{\vartheta_{ek}'' + \vartheta_{ux}}{2} = \frac{302 + 150}{2} = 226^\circ \text{C} \\
 w_v &= \frac{B_r \cdot V^0 \cdot \left(\beta_{vp}'' + \frac{\Delta \alpha_{vp}}{2} + \beta_{rs} \right) \cdot (t_{sr} + 273)}{3600 \cdot F_g \cdot 273} = \\
 &= \frac{16217 \cdot 2,65 \cdot \left(1,06 + \frac{0,06}{2} + 0,177 \right) \cdot (155 + 273)}{3600 \cdot 4,1108 \cdot 273} = 5,92 \text{ m/s}
 \end{aligned} \tag{2.21}$$

$$w_v = (0,5 \div 0,6) \cdot w_g \tag{2.22}$$

$$w_v = (0,5 \div 0,6) \cdot w_g = (0,5 \div 0,6) \cdot 11,84 = (5,9 - 7,1) \tag{2.23}$$

Havo qizdirgichdagi issiqlik uzatish koeffitsiyenti kattaligi aniqlanishi o'rtacha qiymati quyidagicha:

$$k = \xi \cdot \frac{\alpha_1 \cdot \alpha_2}{\alpha_1 + \alpha_2} \tag{2.24}$$

Bu yerda $\xi = 0,85$

Havo qizdirgich uchun devorga gaz orqali issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha_1 = \alpha_{\kappa}; \quad \text{bo'lganda } w_{\varepsilon} = 5,92 \text{ m/s}$$

Quvurlar ko'ndalang yuzasini tutn gazlar bilan yuvib o'tishdagi konvektiv issiqlik berish koeffitsiyentini hisobi:

$$\alpha_n = 35 \text{ kkal/m}^2 \cdot \text{soat} \cdot ^\circ \text{C}; \quad \text{qo'shimcha koeffitsiyent: } S_f = 1,05; S_l = 1; \rightarrow$$

$$\alpha_k = \alpha_n \cdot S_f \cdot S_l = 35 \cdot 1,05 \cdot 1 = 36,75 \text{ kkal/m}^2 \cdot \text{soat} \cdot ^\circ \text{C};$$

$$\alpha_1 = \alpha_{\kappa}; \quad \text{bo'lganda } w_{\varepsilon} = 5,92 \text{ m/s}$$

SHahmatli havo qizdirgich ko'ndalang qirqim yuzasida havo koeffitsiyenti:

$\alpha_n = 59 \text{ kkal/m}^2 \cdot \text{soat} \cdot ^\circ\text{C}$; qo'shimcha koeffitsiyenti: $S_z=1$; $S_f=1$; $S_s=1$; $\Rightarrow$

$$\alpha_k = \alpha_n \cdot S_z \cdot S_f \cdot S_s = 59 \cdot 1 \cdot 1 = 59 \text{ kkal/m}^2 \cdot \text{soat} \cdot ^\circ\text{C};$$

$$k = \xi \cdot \frac{\alpha_1 \cdot \alpha_2}{\alpha_1 + \alpha_2} = 0,85 \cdot \frac{36,75 \cdot 59}{36,75 + 59} = 19,5 \text{ kkal/m}^2 \cdot \text{soat} \cdot ^\circ\text{C} \quad (2.25)$$

Haroratli bosim:

$$\begin{aligned} \Delta t' &= \vartheta_{ek}'' - t_{gv} = 302 - 250 = 52^\circ \text{C} \\ \Delta t'' &= \vartheta_{chik}'' - t_v' = 150 - 60 = 90^\circ \text{C} \\ \Rightarrow \Delta t_{kar} &= \frac{\Delta t_b - \Delta t_m}{2,3 \lg(100/70)} = \frac{90 - 52}{2,3 \lg(90/52)} = 69,3^\circ \text{C} \end{aligned} \quad (2.26)$$

O'lchash kattaligini to'g'rilash koeffitsiyenti ψ quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} \tau_m &= \vartheta_{ek}'' - \vartheta_{ux} = 302 - 150 = 152^\circ \text{C} \\ \tau_o &= t_{gv} - t_v' = 250 - 60 = 190^\circ \text{C} \\ P &= \frac{\tau_m}{(\vartheta_{ek}'' - t_v')} = \frac{152}{(302 - 60)} = 0,63 \\ R &= \frac{\tau_b}{\tau_m} = \frac{190}{152} = 1,25 \end{aligned} \quad (2.27)$$

R va R orqali $\psi = 0,97$ ni topib

$$\Delta t = \psi \cdot \Delta t_{prt} = 0,97 \cdot 69,3 = 67,2^\circ \text{C} \quad (2.28)$$

Yuzani hisobiy qiymatini topamiz:


$$H_{en}^p = \frac{Q_{en} \cdot B_p}{k \cdot \Delta t} = \frac{210,1 \cdot 16217}{19,5 \cdot 67,2} = 2600 \text{ m}^2 \quad (2.29)$$

Zavod tomonidan standart shartdan og'ib ketishi:

$$\frac{H^p - H}{H^p} = \frac{2600 - 2340,3}{2600} \cdot 100\% = 9,98\% < 10\% \quad (2.30)$$

Standart shartdan og'ib ketishi $< 10\% \rightarrow$ konstruktiv tuzilishi.

Yuqoridagi hisobdan kelib chiqib havo qizdirgichning zavoddagi texnik tavsifiy tuzilishida Yangi-Angren IESidagi havo qizdirgichida standart shartdan og'ib ketishi $< 10\%$ ga o'zgarishi aniqlandi.



2.4-rasm. Rekuperativ havoisitgich.

1 - po'lat quvurlar 40x1,5 mm; 2,6 - 20-25 qalinli ustki va pastki quvur taxtalari; 3 - issiqlik kengaytmali kompensatorlar; 4 - havo uzatuvchi quti; 5 - oraliq quvur taxtasi; 7,8 - tayanch egarlar va kolonnalar.

2.4 - Jadval

**PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan
35VP18R/54 turidagi bug‘ qozonidagi chiqit gazlar hisobi.**

Oy	jami	Mazut kuli	Oltingugrt angidridi	Azot II oksidi	Uglerod II oksidi
Yanvar	69,81	0,333	55,092	11,138	3,247
Fevral	57,754	0,264	45306	9,282	2,902
Mart	45,488	0,215	35,520	7,426	2,327
April	32,317	0,159	26,458/	4,332	1,368
May	28,227	0,14	23,196	3,713	1,178
Iyun	16,0	0,012	24,20	2,123	1,245
Iyul	30.15	0,30	35,520	4,332	1,368
Avgust	42,162	0,225	0,225	6,188	2,135
Sentabr	8,215	0,039	6,527	1,238	0,411
Oktabr	42,162	0,205	33,826	6,188	1,943
Noyabr	46,255	0,225	37,088	6,807	2,135
Dekabr	78,991	0,380	63,186	11,756	3,669
Yillik	409,22	1,960	326,199	61,880	19,180

Hisob uchun qiymatlar $A^i=0,015\%$, $S^i=1,07\%$, $Q_n = 9708$ kkal/kg, $W^i=1,41\%$, $O^i=0,2\%$, $C^i=83,8\%$, $N^r=0,31\%$.

Issiqlik yo‘qotilishi q_2 va q_5 , q va q yo‘qot itilishiga asosan (CO) chiqishi xisobga olinadi.

$$((C^p + 0.375 \cdot S^p) / 100) = 1.866 \quad ((83.8 + 0.375 \cdot 1.07) / 100) = 1.571 \text{ m}^3/\text{kg}$$

$$V_{H_2O} = 0.111 \cdot H^p + 0.0124 W^p + 0.0161$$

$$V^0 = 0.111 \cdot 11.2 + 0.0124 \cdot 1.41 + 0.0161 \cdot 10.44 = 1.43 \text{ m}^3 / \text{kg}$$

Tutun gazlarning xajmiy xisobi $a > 1$ bo‘lganda (PTVM- 30 - $a = 1.2$) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$V_g = V_{RO_2} + V_{N_2} + V_{H_2O} + (a - 1) \times V^0 + 0.0161 (a - 1) \times V^0 \times V_g = 1.571 + 25 + 1.43 + (1.7 - 1) \times 10.44 + 0.0161 \times (1.7 - 1) \times 10.44 = 18.7 \text{ m}^3 / \text{kg}.$$

PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug‘ qozoni uchun:

$$V_g = 1.571 + 8.25 + 1.43 + (1.2 - 1) \times 10.44 + 0.0161 \times (1.2 - 1) \times 10.44 = 13.5 \text{ m}^3 / \text{kg}.$$

Tutun gazlarni atmosferaga chiqishdagi xajmiy xisobi, quyidagi formuladan aniqlanadi :

$$V_1 = B \times (1 - 0.01 \times q_4) \times V_g \times (T_g / 273) = V_r \times V_g \times (T_g / 273) \times V_d = 0.5583 \times 18.7 \times (467 / 273) = 17.86 \text{ m}^3 / \text{kg}.$$

PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug‘ qozoni uchun:

$$V_p = 0.625 \times 13.5 \times (473 / 273) = 14.62 \text{ m}^3 / \text{kg}.$$

$$V_1 = V_d + V_p = 32.48 \text{ m}^3 / \text{kg}.$$

Yuqoridagi formulalardan kelib chiqib tutun trubasiga chiqib ketayotgan gaz quyidagicha xisoblanadi

$$T_g = (V_d \times T_d + V_p \times T_p) / (V_d + V_p) = (17.86 \times 467 + 14.62 \times 473) / (17.86 + 14.62) = 469.7 \text{ K} \gg 197^\circ \text{P};$$

Atmosferaga chiqarilayotgan tutun gaz bilan atmosferadagi xavo xarorati farqi T_g i T_x , K.

$$DT = T_g - T_x = 197 - 37 = 160.$$

T_x - temperatura okrujayushogo atmosfernogo vozduxa ravnaya sredney

Yozning issiq kunlaridagi maksimal tashqi xarorat yil uchun.

PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug‘ qozoni $T = +37^\circ \text{C}$;

Tutun trubasidan chiqishdagi tutunning o‘rtacha tezligi, m/s;

$$w_0 = (4 \times (V_r \times V_g + V_r \times V_g) \times T_g) / p \times D^2 \times 273 = (4 \times (0.5583 \times 18.7 + 0.625 \times 13.5) \times 470) / 3.14 \times 1.8^2 \times 273 = 12.8 \text{ m/s};$$

O'lchamsiz qiymat n va m quyidagicha ko'rsatkichlarga bog'liqligi aniqlash f va n : $f = 1000 \cdot ((w^2 \cdot D) / (H^2 \cdot DT)) = 1000 \cdot ((12.8^2 \cdot 1.8) / (45^2 \cdot 170)) = 0.8566$, bu yerda: w^2 - Tutun trubasidan chiqishdagi tutunning o'rtacha tezligi, m/s; D - Tutun trubasi pastki diametri, m.

$$n_m = 0.65 \cdot \sqrt[3]{\frac{V_1 \times \Delta T}{H}} = 0.65 \cdot \sqrt[3]{\frac{32.48 \times 170}{45}} = 3.23 \text{ } n = 1$$

$$f \text{ ning } m \text{ ga bog'liqligi: } m = \frac{1}{0.67 + 0.1 \times \sqrt{f} + 0.34 \times \sqrt[3]{f}} = 0.92 .$$

$$H = \sqrt{\frac{200 \times 1 \times 0.92 \times 1 \times 1 \times 47.324}{0.5 - 0.25}} \times \sqrt[3]{\frac{1}{32.48 \times 170}} = 44$$

PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug' qozoniinng issiqlik samaradorligini baholash.

PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug' qozoni Talimarjon IES ining qo'shish-qizdirish qozonxonasida joylashgan. Unitar korxonasiga qarashli bino va inshootlarni, shuningdek Nuriston qo'rg'oni turar joy binolarini issiq suv bilan ta'minlashga xizmat qiladi PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug' qozoni markali ikkita bug' isitish qozoni mavjud.

Sho'rtan gaz kimyo majmuasida boshqarish va nazorat qilish uchun VK-1,2 deb nomlangan.PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 to'g'ri oqimli, tabiiy sirkulyatsiyali "P" shaklidagi yopiq xolatdagi komponovkaga ega. Amerika zavodida ishlab chiqarilgan.

2.5-jadval

**PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan
35VP18R/54 turidagi bug‘ isitish qozoni issiqlik samaradorligi.**

№	Kattaliklar nomlanishi	Belgilanishi	O‘lchash kattaligi	Sinov qiymatlarini hisoblash formulasi	Son qiymati
1	Qozonning issiqlik quvvati (bruttoda)	Q_q	Gkal/soat	$G_{t.s.} \times (t_{kir} - t_{chiq.}) \times 10^3$	30
2	Qozondagi tarmoq suvi iste'moli sarfi	$G_{t.s.}$	t/soat	Sinov qiymatlariga asosan	500
3	Tarmoq suvining qozonga kirishi	t_{kir}	°C	Sinov qiymatlariga asosan	90
4	Ta'minot suvini qozondan chiqishdagi harorati	$t_{chiq.}$	°C	qiymatlariga asosan	130
5	Qozon bosim	P_{bar}	kg/sm ²	Sinov qiymatlariga asosan	1.3
6	Chiqit gazlar harorati	$V_{chiq.g.}$	°C	Sinov qiymatlariga asosan	200
7	Sovuq havo harorati	$t_{s.h.}$	°C	Sinov qiymatlariga asosan	20
8	Konvektiv qismdan keyingi oqim tarkibidagi havo koeffitsiyenti sarfi	$\alpha_{chiq.g.}$	-	$\alpha_{chiq.g.} = \alpha + \Delta\alpha$	1,2
9	Konvektiv qismla va o'txona kamerasiga havo so'rish yig'indisi	$\Delta\alpha$	-	Ishga tushirishdagi texnik qoidalarga berilgan qiymat	0,05
10	Chiqib ketuvchi gazlarda issiqlik yo'qotilishi	q_2	%	$q_2 = (K \times \alpha_{chiq.g.} + S) \times (V_{chiq.g.} - (\alpha_{chiq.g.} / \alpha_{chiq.g.} + V) \times t_{s.h.}) K \times A_t \times 10^{-2}$	8,44
11	Qozondan atrof-muhitga issiqlik yo'qotilishi	q_5	%	-	0,05

12	Qozonxona brutto FIKi	η^{br}	%	100- q_2 - q_5	91,51
13	Tabiiy yoqilg'i sarfi	V_k	t/soat	$Q_q \times 10^5 / \eta^{br} \times Q^r$	2,25
Qozonning shaxsiy ehtiyoji uchun elektr energiyasining sarfi					
1	Tutun so'rish uchun	N_t	kVt/soat	Sinov qiymatlariga asosan	49
2	SHamollatishga	N_d	kVt/soat	Sinov qiymatlariga asosan	29
3	Yoqilg'ini uzatish uchun	$N_{yoq.}$	kVt/soat	Sinov qiymatlariga asosan	41
4	Qozonxona shaxsiy ehtiyoji uchun ishlatilgan quvvat	$N^{sh.e.}$	kVt/soat	$N_t + N_d + N_{yoq.}$	119
Elektr energiyasini o'rtacha sarfi					
1	Tutnni shamollatishga	E	kVt/Gkal	$N_t + N_d / Q_q$	3,9
2	Yoqilg'ini uzatish uchun	E	kVt/Gkal	$N_{yoq.} / V_k$	18,2
3	Qozonxonashaxsiy ehtiyoj uchun elektr energiyaning umumiy sarfi	E	kVt/Gkal	$N^{sh.e.} / Q^{br}$	5,395
4	Qozon netto FIK	η_k	%	$\eta_k - q_{iss.}$	87,54
5	Bruttoda	V_k	Kg/Gkal	$10^5 / \eta_k$	156,11

II. MEHNAT MUHOFAZASI VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI.

Umumiy xavfsizlik choralari ta'minlash. Ko'pchilik sanoat korxonalari va foydalanish jarayonlarida xavfsizlik texnikasi bo'yicha ayrim talablar umumiy qabul qilingan. Bu qoidalarining ko'pchiligi mahalliy qonunchilikdan, masalan qurilish va sanitar–texnik mezonlar va qoidalaridan kelib chiqadi. Shuningdek, korxona o'zi uchun ma'qul bo'lgan amaliyot va ish tajribasidan foydalanadi. Ko'pchilik hollarda uskunalarni ushlab turish, joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish maqsadida ko'p qavatli imoratlar, qurilish tomlari va yer usti ochiq inshootlaridan foydalaniladi. Bu kabi bino va inshootlardan avariya sodir bo'lganda chiqish uchun narvonlar (shuningdek osma narvonlar) hamda avriyali holat uchun ko'chma zinlardan foydalaniladi. Ayrim qurilmalarda esa trosalar va ustunlardan ham foydalanish mumkin. Avriya holatida bir joydan chiqish mumkin emas. Lift dan 40 fut (taxminan 12 m) masofada joylashgan yer usti maydonlari, zinapoya oraliqlari yoki ko'chma narvon uchun qo'shimcha avariya chiqish joyi bo'lishi zarur. Shunday qilib to'liq o'ralgan bir qavatli bino eshiklari shunday joylashgan bo'lishi kerakki, odamlarni avariya holatda evakuatsiya qilishda har qanday nuqtadan eshikkacha bo'lgan masofa 40 futdan oshmasligi zarur. Muntazam tekshirish, rostlash yoki ta'mirlashni talab qiluvchi texnologik va qo'shimcha uskunalarning qulay va kirish mumkin bo'lgan joyda joylashishi zarur. Odatda 12 futdan yuqori (taxminan 3,6 metr) da joylashgan uskunalarga texnik xizmat ko'rsatishda osma platformalardan foydalaniladi. Masalan, texnologik uskunani faqat ishga tushirish va to'xtatishda ishlatiladigan boshqarish klapanlarini qo'shish va o'chirishda uzangi va osma narvon ishlatilishi mumkin. Termometr, manometr kabi alohida ajratilgan joylariga o'rnatilgan uskunalarning boshqarilishi, agar ular platforma yoki yuzadan balandligi 8 futdan oshmasa, uzangi yordamida amalga oshiriladi. Platforma perimetri bo'ylab tutqichga ega bo'lishi, hamda barcha yopilmagan xadak va quduqlar ham tutqich bilan o'ralgan bo'lishi zarur. Platformaga xizmat qilayotgan va balandligi 12 fut (taxminan 3,6 metr) dan

baland uzangilar to'siqlar bilan o'ralishi shart. Texnik xizmat ko'rsatish paytida jixozlarni ko'tarish-tushirish qurilmalardan foydalanish zarur. Buning uchun ko'chma qurilmalardan foydalanish va unga qulay yulak bo'lishi shart. Chegaralangan kirishli uskunalarga portativ qurilmalar yordamida xizmat ko'rsatilishi zarur. Odamlar yulagi, issiqlik almashgich va saqlash klapanlari qoplamaga ega bo'lishi lozim. Balanda turuvchi va og'irligi 1000 funtdan (taxminan. 500 kg) ortiq bo'lgan uskunalar doimiy tushirish vositalari bilan ta'minlanishi shart. Ulkan kompressorlar yoki uzatmalarga xizmat ko'rsatish uchun montaj balkalari va kranlar ishlatilishi kerak. Har qanday aylanuvchi uskuna, tasmali, zanjirli uzatma, hamda uzatmali konveyer saqlovchi to'siq bilan ta'minlanishi zarur. Texnik xizmat ko'rsatish jarayenida qo'l ostida pajarali apparatlar, quritish, o'rash uskunai bo'lishi shart. Ishchi-xodimlarning texnologik qurilma ichiga kirishiga faqat barcha oqimlar ventilyator yoki tiqin yordamida almashinadigan qo'sh blokirovkali klapan yoki klapanlar uyasidagi disk va ventilyator yordamida to'liq yopilgandan so'ng ruxsat etiladi. Klapani boshqarish qurilmasi o'chirilgan, blokirovkalanagan, tamg'alangan, qulflangan bo'lishi va qo'riqlanishi shart. Qurilmalar mashinistlari va operatorlar qaynoq quvurlar yoki idishlarga tegib ketishdan saqlangan bo'lishlari kerak.

Saqlash va foydalanish. Xavfli materiallarni saqlash va ulardan foydalanishda ularni xavfsiz saqlash va oqib chiqishni bartaraf etishning garovi bo'lgan materiallarning ximiyaviy xossalarini puxta bilish talab etiladi. Yig'uvchi rezervuarlar atrofi to'siq devorlar bilan o'ralgan bo'lishi shart. O'ralgan maydon sig'imi kamida rezervuarlar hajmining 110% ga teng bo'lishi kerak. Xlor va shunga o'xshash zaharli gazlarni asosan tashqarida saqlash ma'qul, bu ozroq sirqib chiqqan gazning tarqab ketishini, korroziya va bosim oshishini kamaytirish uchun nurdan himoyalovchi panani ta'minlaydi. Materiallarning joylari devor bilan o'rab olinishi zarur. Xavfli materiallarni saqlash ishonchliligi yopiq tizimlarda ancha yaxshi ta'minlanadi. Ximikatlarni tashishda xizmatchi xodimlar maxsus kiyim, qo'lqop, va maska kabi ximoya

kiyimlariga ega bo'lishi shart. Saqlovchi klapan orqali xavfli materiallarning sirqib chiqiqishiga yo'l qo'yilmaydi. Xavfli materiallar bilan aloqa qilinadigan barcha xududlarda kerakli paytda foydalanish uchun kranlar va qo'l yuvgichlarning bo'lishi shart. Ular doimo ishchi holatda bo'lishi, jabrlangan (hatto vaqtinchalik ko'rmay qolgan) lar ular bilan muomala qilishlari uchun ishonchli va ishlatishi oddiy bo'lishi kerak.

Sizib chiqish va oqib ketish.Xavfli materiallarni saqlash, tushirish va foydalanish avariya yuz bergan taqdirda eritish, suyultirish yoki to'kilgan ximikatlarni yuvib tashlash maqsadida yetarli miqdordagi suv bo'lishini talab qiladi. Barcha tozalash ishlaribelgilangan mahalliy instruksiyalarga asosan bajarilishi zarur.

Birinchi yordam

Xavfli ximikatlar teriga yoki ko'zga tushgan holatda birinchi kerakli yordam berish asosiy ahamiyatga ega. Bunday hollarda zararlangan uchastkani tezda yetarli miqdordagi suv bilan yaxshilab yuvib tashlanadi.

Xavfli ximikatlarning hatto ozgina miqdori ko'zga tushgan paytda ko'zni ko'p miqdordagi oqar suv bilan kamida 15 minut davomida yuvish zarur. Tez tibbiy yordam ko'rsatishning iloji bo'lmagan taqdirda yuvishni yana qo'shimcha 15 minut davom ettirish lozim. Agar vrach tavsiya etmagan bo'lsa, har qanlay ko'z tomchi, surtma yoki boshqa dorilarni qo'yish tavsiya etilmaydi. Qurmilma, asboblari va korroziyalari va zaharli moddalar quvurlari tizimi shunday o'rnatilgan bo'lishi kerakki, bunda avariya sizib chiqish minimal darajaga kelishi zarur. Ushbu qurilmani ishlatishga ruxsati bo'lgan barcha shaxslar kislotali va kaustik materiallardan foydalanishdagi xavf-xatar yuzasidan tegishli o'qishni o'tashlari shart. Ximikatlarni ko'chirish yoki ulardan foydalanishda ishchi va xizmatchi xodimlarning ximikatlar avariya sirqib chiqqanda yoki to'kilib ketganda rezina etik, qo'lqop, fartuk, himoya ko'zoynaklari kabi himoya kiyimlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Barcha xodimlar ushbu qurilma bilan ishlashdan oldin xavfsizlik texnikasining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishishlari shart.

Shaxsiy ximoya vositalar sonini, kanalizasiyalarni, shamollatish tirqishlarni muxosaralagichlarni, NO'A va A jihozlarni yerga tutashtiruvchi (zazemlash) jixozlarni, armaturalarni, quvurlarni, jihozlar sozligini va to'ri yig'ilganligini jihozlarni ishga qo'shishdan oldin tekshirish lozim.

Jihozlarni ishlatish vaqtida operator xonasisdagi texnologik interfeysdagi kompyuterning nazorat-o'lchov asboblari ko'rsatgichlarni qaytsiz kuzatib ularni apparatlarning bevosita o'zlarida o'rnatilgan mahalliy asboblari ko'rsatgichlari doimiy ravishda solishtirib borilishi kerak.

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan deformasiyalardagi ogohlantirish uchun apparatlardagi bosim va haroratni o'zgarishini sekin va ravon bo'lishi lozim. Jihoz qurilmadagi texnologik rejimini qat'iy kuzatib, omillarni (bosim, xarorat, sarf, sath va boshqalar) o'rnatilgan meyordan past yoki yuqori bo'lishiga ruxsat etilmaydi.

Ishlash sxemasidan chiqarilgan apparatlar, qurilma va quvurlar yopilgan bo'lishi lozim. Quvurlardagi zadvijskalar va jo'mraklar (ventillar) sistemali moylanishi va oson ochilishi lozim. Tamirlash uchun to'xtatilgan jihozlarning alohida uzellari va hamma apparatlar ishga qo'shishdan oldin zich berkitilganlikka (germentiklikka) tekshirildi.

Faqat soz jihozlarda ishlash lozim. Har qanday nosozliklar, yoki jihozlar, aloqa qilish, rostlash o'lchash asboblarining normal ish holati buzilsa tezda ularni bartaraf etish choralari ko'rish lozim. Apparatlarning o'zlarida o'rnatilgan dubler (o'rinbosar) asboblari yordamida kuzatish xonasisdagi NO'A ko'rsatgichlarini tekshirib turish lozim.

Xarakatdagi jihozlardagi bosim atmosfera bosimigacha tushib ketmasa, ulardagi birikmalarida va solniklarida zichlash o'tkazish taqiqlanadi. Suyuqliklarning ruxsat etilgan sathi buyia xabarlatgichlari va shovqinni o'lchash asboblarining soz holatini qat'iy kuzating.

Nosozlarni ish vaqtida sozlash taqiqlanadi. Yig'ilgan qurilmalarni yoki tamirlab keltirilgan jihozlarni qurilma rahbari yoki mexaniki ruxsatsiz ishga

qo'shmang. Harakatlanuvchi qismlar mexanizmlariga xizmat qilishga ruxsat etilmaydi. To'siq orqasida ish bajarayotgan ish vaqtida kirish:

Ximoya to'siqlari nosoz yoki ishlash: xarakatlanuvchi qismlarni ish vaqtida tamirlash yoki bu borada har qanday tuzatish ishlari; o'rnatilgan maxsus kiyimsiz ishlash.

O'rnatilgan formada xavfsizligi yuqori bo'lgan ishlarni bajarish yozma ravishda ruxsat etilgan noryad (ruxsatnoma) dan so'ng bajarish. Yong'in o'chirish vositalarini, maxsus ximoyalar, aptechkalar, maishiy sanitar (stollarp, kondensiyonlar, shkaflar va b.q.) ko'rgazmali tashviqot jihozlarning taxlangan holatda saqlanishi va soniini kuzatib borish;

Korxonaning harakatdagi obektlari va ish joylarida begona kishilarni kirishiga ruxsat etmang.

Texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalarga amal qilib, xizmat (rahbariy) yo'riqnomasida ko'rsatilgan hamma ishlarni aniq va o'z vaqtida bajaring.

Jihozlar joylashgan maydon bino va inshootlar toza saqlanishi lozim. Axlatlar, ishlab chiqarish chiqindilari, barglar, qurigan o'tlar va b.q. Sistematik ravishda maydondan yig'ishtirilib, maxsus ajratilgan joyga to'kilishi lozim.

Inshoot binolari ichida, norvon panjaralarida, binodan chiqish va o'tish yo'llari, yong'in jihozlariga borish yo'llari.

Ishlab chiqarish korxonalaridagi pollar toza va soz bo'lishi kerak. Artib tozalash uchun material qopqog'i maxsus foydalanilgan yashikka joylang.

Ishlab chiqarish binolarida moylash materallarini saqlashi 20 litrdan oshmasin. Jihozlar maydondagi ishlab chiqarish kanalizasiyalarining uzatish qopqog'lari doimiy ravishda yopiq va ularning ustiga 10sm qalinlikda qum sepilgan bo'lishi va atrofi aylantirilgan xalqasimon o'ralgan bo'lishi kerak.

III. ATROF-MUHIT MUHOFAZASI.

Hozirgi sharoitda jamiyatni tabiatga ta'sir masshtabi juda kata miqdorga yetdi. Odamzod faoliyati yer ustini to'liq egallab va undan tashqariga, kosmosga ham o'tdi. Hozirgi kunda jamiyat juda, katna kuchga aylanib muhitni tabiiy ravishda o'qishga sezilarli ta'sirini o'tkazmoqda. Lekin bu ta'sir, pozitiv oqibatdan tashqrai negativ (salbiy) xarakteri ham bo'lib, u odamlarni xayotiy faoliyati sharoitini yomonlashtiradi. Tabiatni himoya qilish masalasi dunyoni tinchligi uchun kurashishdan keyin birinchsi nomer bo'lib kelmoqda. Havo va suv basseymlarini tozaligini saqlash muammolari millatlar muammosigina bo'lib qolmasdan, global muammo bo'lib ham hisoblanadi. Chunki atmosfera va suvda antropogen zararli aralashmalarni tarqalish chegarasi yo'q.. Bularni hisobga olib, xalqaro tashkilotlar BMT, SEV, MIREK maxsus organlar bo'lib, ular ekologik muammolarni o'rganishadi va atrof muhitlarni ifloslanishdan saqlash chora tadbirlarini ishlab chiqmoqda.

Bizni davlatda atrof muhitni himoya qilish va tabiat boyliklaridan rasional foydalanish masalalariga katta axamiyat bermoqda. Respublikada tabiatni himoya qilish komiteti tuzilgan. Uni vazifasiga kiruvchilar: tabiat boyliklaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini o'rnatish, tabiatdan foydalanish mexanizmini iqtisodiy mukommallashtirish, ekologik normativlar, atrof muhitni himoya qilishqoidalari va standartlari, va boshqalar. Atrof muhitni samarali himoya qilish avvalo boyliklarni tejash, kam chiqimli va chiqimsiz texnologiyalar keng tadbiq qilish, havo muhitini va suv xavzalarini ifloslanishishini kamaytirish bilan bog'liq.

Atrof muhitni o'rganishda uni asosiy tashkil etuvchilarni ajratish kerak: havo muhitini; suv xavzasini; jonivorlar dunyosi; o'simliklar dunyosi; tuproqni, yer osti boyliklari iqlim va akustik muhitni, eng nozik tashkil etuvchiga havo muhitni va gidrosfera kiradji, ularni ifloslanish natijasida odamzod faoliyatiga juda kata shikast va tabiatga sezilarli zarar yetkazadi. Ularni

batafsil ko'rib chiqamiz. Xavo muhiti. U tashqi bo'lishi mumkin. Unda odamlar o'z vaqtini kam miqdorini (10-15% gacha) o'tkazishadi, ichki ishlab chiqarishda (25-30% gacha vaqtini) va yashash joyi ichida odamlar o'z vaqtlarini o'p qismini o'tkazadilar (60-70% gacha). Yer ustidagi tashqi havo xajmi tarkibida ; 78,08% azotni; 20,95% kislorodni; 0,94 % inert gazlar va 0,03% karbonat angidrid bor. 5 km balandlikda , kislorodni xajmi oldingiday bo'ladi, azot esa 78,89% gacha oshadi. Ko'pincha yer ustida havo xar xil aralashmalardan iborat bo'lib, kata shaxarlarda ularni miqdori 40 ta ingridiyentidan ortiq bo'ladi. Yashash xonadonlardagi xavoni tarkibida yuqori miqdorda karbonat angidrid bor, ishlab chiqarish xonadonlardagi havo esa aralashmalardan tashkil topgan, ularni tarkibi texnologik jarayon yo'li bilan aniqlanadi.

Suv muhiti. U o'z ichiga yer osti va ustidagi suvlarni oladi. Yer yuzidagi suvlarni 98% sirtqi suvlar dengiz va okeanlarda to'plangan (okean yuzi 361 mln, km² tashkil qiladi). Okean suvi sho'r (sho'rli 3,5% va xarorati taxminan 3,7 °C ni tashkil qiladi). Yer osti suvlar sho'r, sho'rroq va shirin bo'ladi: geotermal suvlarni xarorati 30 °C yuqori bo'ladi. Odam ishlab chiqarishda va kunlik xayotida chuchuk suvni ishlatadi, yer yuzidagi chuchuk suvni miqdori 2,7% tashkil qiladi. Chuchuk suv bo'lmagan taqdirda sho'r suv chuchuk suvga aylantiriladi giperfilterlanadi. Bu ikki jarayon ham energiya sig'imi (ko'p energiyani talab qiladi). Suv muhitni o'ziga xos xususiyatlaridan biri, u orqali asosan infeksiyali kasalliklar yuqtiriladi (80% gacha xamma kasalliklar).

Iqlim muhiti. U har xil turdagi xayvonlarni, o'simliklar dunyosini va uni xosildorligini asosiy faktorii hisoblanadi. Respublika iqlimi-qisqa qattiq kontinental bo'lib, qishda sovuq va yozda uzun issiq bo'ladi. Isitiladigan binollarni ichki harorati o'rta 18-22 °C bo'ladi (xonani vazifasiga qarab). Issiqni yo'qolishi yoki binoni isitish uchun kerak bo'lgan issiqlik miqdori ichki va tashqi havoni farqlariga to'g'ri proporsionaldir. Respublikani shimoliy rayonlarida isitish va issiq suv Bilan ta'minlash uchun yanvar oyida ko'p

miqdorda issiqlik energiyasini sarflashga to'g'ri keladi, janubiy rayonlarda esa u eng sovuq hisoblanadi (1 odamga sarflanadigan yoqilg'ini yoki issiqlikni sarflanish ko'rsatkichini qo'shish kerak). Atrof muhitni o'rab turgan xama tashkil etuvchilar biosfera kiradi, ya'ni yer qobig'i atmosferani bir qismini gidrosferani va litosferani yuqori qismini o'ziga qamraydi, qaysi biri moddalarni va energiyani migrasiya qismida ko'chishda murakkab bioximik sikllarga bog'liq. Moddalarni biosferada ko'pincha (migrasiyasiga) misol qilib suvni tabiatda aylanishni olish mumkin. Kislorodni aylanma xarakati odatdan tashqari murakkab, chunki biosferada unga organik va organik bo'lmagan ko'p miqdordagi moddalar birikadi. U vodorod bilan birikib suvni tashkil qiladi. Fotosintez natijasi bo'yicha yer yuzida xar yili o'simliklar 100 mlrd. tonna organik moddalarni tashkil qilinib 200 mlrd. tonna SO_2 o'zlashtiradi va (45 mlrd. tonna erkin kislorodni ajratadi). (1ga ko'p ekinzor bir soatda 200 odamga nafas 8 kg tozalaydi, kata daraxt bir sutkada 180l O_2 ajratadilar.)

Atrof-muhitni xolati ilmiy-texnik va odamlar soniga bog'liq. Bakteriologik, kimyo, yadro va boshqa zamonaviy qurollar va nihoyat odamni o'zi flora va faunaga nomuvofiqlimon ta'sir ko'rsatmoqda, tabiat boyliklarni o'zlashtirish ta'sir qilmoqda (foydali qazilmalarni kavlab olish o'simlik qatlamini buzmoqda, yerlarni cho'kishiga olib kelmoqda va x.o.). Suv muhitini yomonlanishi hisobiga qishloq xo'jalikda mineral moddalarni ishlatishga to'g'ri keladi, yerdan oqib kelgan suv o'z tarkibidagi zarar moddalar bilan suv xavzasini ifloslaydi. Suv boyliklari resurslaridan to'g'ridan-to'g'ri sug'orish ishlariga va axolini suv bilan ta'minlashga suv xavzalardan 10-20% suv olinadi, bu ham tabiatga zarar keltiradi. (masalan Orol dengiziga tushadigan suvni 40 % paxta dalalarini sug'orishga olinadi). Suv energiyasidan gidroelektr stansiyalarida foydalanish birgina baliqlarni ko'payishiga ta'sir qilibgina qolmasdan, balki yerlarni unumdorligini ham kamaytirib yuboradi. Undan tashqari atrof muhit tabiiy ravishda yomonlash holati bor, ularga yer qatlamini eroziyaga uchrashi va qattik sovuqlar, baxor

paytida muz qatlamini erishi ushlanib qolishi kiradi. Lekin, sanoatni rivojlanishi, xususan issiqlik ishlab chiqadigan isitish qurilmalarida va sanoat qozonlarida, o'choqlarida, issiqlik elektr stansiyalarida eng ko'p miqdorda zara keltiriladi. Ifloslovchilarga sanoat ehtiyoji bilan yoqilg'ini yoqish va har xil texnologik jarayonida xosil bo'lgan maxsulotlar, binolarni issiqlik bilan ta'minlash, shuningdek sanoatga maishiy chiqimlarni qaytadan ishlash va ularni yoqish xamda transport kiradi.

Havo va suv xavzalarini ifloslashda ko'pincha bir necha manbalar qatnashadi: issiqlik elektr stansiyalari, qozon qurilmalari, kimyo sanoat korxonalari, metallurgiya va sementzavodlar, qurilish materiallar sanoat va boshqalar, ularni havodagi tarkibi va xarakterini hisobga olish ancha murakkab. Aloxida olingan tarmoqlarni solishtirma qiymati atmosferani umumiy balandlikda bir xil emas. Atmosferani ifloslovchi moddalar, ayniqsa shaharlarda ko'p, har xil bo'lib atrof muhitga ta'siri bir xil emas. Ularni hammasi har xil agregat holatda bo'ladi: qattiq zarrachalar, suyuqlik tomchilari, bug' va gaz. Asosiy ifloslovchilarga : qattiq va suyuq yoqilg'ini yondirganda qattiq zarrachalar, oltingugurtning gazsimon oksidlari, azot, karbonat angidrid, mishyak, simob birikmalari, kislotalar, spirtlar, benzin va boshqalar kiradi. Odam ogranizmiga ta'siri bo'yicha eng xavflilar: SO karbonatangidrid, SO₂ va SO₃ oltingugurt oksidlari va NO_x azot oksidlari hisoblanadi. Havo tarkibida soni miqdori 0,4÷0,5% bo'lganda undan bir necha minut nafas olish xayotga SO ni rangi, na xidi bo'lmaganidan uni xavfliligi yanada oshadi.

Karbonat angidrid qattiq va suyuq yonilg'ini yonishidagi mahsulot hisoblanadi. Gazlarni odamga ta'sir qilish darajasi medik-biologik izlanishlar orqali aniqlangan va odamni normal xayot kechirishi ta'minlash.

Atmosferada ifloslanish qanchaga va vaqtinchalik taqsimlanishini bilish muhimdir, chunki u metereologik faktorlar orqali aniqlanadi. Tarqalish darajasiga ularga shamolni yo'nalishi va tezligi (shamolsiz havoda tashlamalar

sekin tarqaladi). Havo harorati (past haroratda – juda katta konsentrasiya kuzatiladi), havo namligi (havo namligi yuqori bo‘lganda chang, qurumlarning konsentrasiyasi oshadi). Ilmiy izlanishlar asosida atmosfera tozaligini ta’minlash maqsadida butun dunyo miqyosida aholini yashash punktlari uchun davlat standarti va adabiyotlarda keltirilgan 750dan ortiq zararli ifloslanishga qarshi atmosfera havosining maksimal bir martalik – $CHYQK_{bm}$ va o‘rtacha kunlik cheklangan konsentrasiyasi – $CHYQK_{sut}$ o‘rnatilgan. Atrof-muhitni ifloslanishini kamaytirishda ogohlantirish bo‘yicha tadbirlar:

a) atmosfera havo kuchli ifloslovchi sanoat korxonalarni (metallurgiya, kimyo va h.q.) shaharlarda joylashtirishga ruxsat berilmaydi;

b) issiqlik va energiya ta’minotiga ketadigan yoqilg‘ini sezilarli kamaytirishga yordam beradigan teplofikasiya negizida markazlashgan issiqlik bilan ta’minlashni rivojlantirish, yoqilg‘ini yoqishning yangi takomillashgan usullar bilan ta’minlash, atmosferani baland qatlamiga tutun gazlarini chiqarish va tozalash;

v) korxonalarni shamol yaxshi esadigan balandliklarga joylashtirish;

g) sanoat korxonalarini aholi yashash punktlaridan sanitar-himoya hududlari bilan ajratish

Texnologik va sanitar-texnik tadbirlar:

a) chiqindisiz va kam chiqindili texnologik jarayonlarni yaratish;

b) zarrali tashlamalarni kamaytirish maqsadida texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, jihozlarni va qurilmalarni germetik holatini yaxshilash;

v) atmosferaga tashlanadigan havoni oldindan zararli aralashmalardan tozalash;

g) hamma ko‘rinishdagi yoqilg‘ini kuldan va oltingugurtdan ozod qilish uchun ularga maxsus qayta ishlovdan foydalanish;

d) suyuq va qattiq yoqilg‘ini gazsimon bilan almashtirish;

e) atmosferani yuqori qatlamlariga yonish mahsulotlarini tashlash uchun tutun chiqaruvchi quvurlarni baland qilib o‘rnatish.

Ma'lumki, yoqilg'ini yondirganda asosan eng zarar bo'lgan moddalar oltingugurt va azotning oksidlari ajralib chiqadi. Prinsipial xolatda oltingugurt aralashmasini ajralib chiqishini kamaytirish 3 xil yo'nalish bilan ko'rib chiqish mumkin: yoqilg'ini yondirishdan oldin oltingugurtni undan ajratish, yangi uslub va yondirish tartibini qo'llash, yonuvchi maxsulotni oltingugurt birikmasidan tozalash.

Yonuvchi yoqilg'ini oltin gugurtini kamaytirish uchun oksidlovchi modda (gazifikasiya)dan foydalanib unga yuqori temperaturada ta'sir qilish kerak yoki piroliz yo'li bilan. Oltingugurt, neft qayta ishlash zavodlarida qo'llaniladigan uslubda, gidravlik tozalash yordamida ajratish mumkin. Hisoblar qaysi yo'l bilan tozalashdan qat'iy nazar energiya tannarxini 15-30% ga oshiradi, o'rnatilgan birlik quvvatini esa 40-50%gacha. Ularni hisobga olib oltingugurt ajratish texnik-iqtisodiy hisoblar asosida bajariladi.

Ko'mirni yoqqanda gaz bilan chiqib ketadigan NO_2 o'rtacha konsentrasiyasi $0,5 \text{ g/m}^3$, tabiiy gaz esa $-0,4 \text{ g/m}^3$. Yondirilgan moddalarni analiz qilganda mavjud bo'lgan azot 95-99% NO dan tashkil topgan va 1-5% NO_2 dan. Azot oksidlarining ajralib chiqishini kamaytirish yo'llaridan biri bu-yonuvchi mahsulotlarni resirkulyatsiya qilish, ortiqcha havo ko'effisiyentini kamaytirish, havoni qizdirilishini kamaytirish. Sanab o'tilgan har bir usul o'rtacha azot oksidini miqdorini 35-40% kamaytiradi.

2. Tutun quvurini asosiy vazifasi yongan mahsulotni sun'iy yo'l bilan atmosferani yuqori qatlamiga chiqarib tashlaydi, ularni havoda konsentrasiya darajasigacha tarqalish sharoitini yaxshilaydi, unda ular atrof muhitga xavfsiz bo'ladi. Quvur balandligini to'g'ri va ishonarli aniqlash, zararli moddalarni yo'l qo'yilgan konsentrasiyasini ta'minlash uchun ularning kattaliklari yig'indisini hisoblash zarur. Ma'lum bo'lgan tavsiya asosida, agregatlar qozonida yongan mahsulotlarni atmosferaga tashlanayotgan M, g/s , zararli moddalar miqdorini quyidagi tartibda

aniqlanadi: a) Qattiq va suyuq yoqilg'ini yondirganda yonib tomom bo'lmagan yoqilg'ini va M_3 kul miqdoriga teng bo'ladi:

$$M_3 = 10(A^r + q_4)a_{un}B(1-\eta) \quad (3.1)$$

bu yerda- A^r -yoqilg'i ishchi massasini kulliligi, %; q_4 - mexanik yondirish bo'lmaganda issiqlikni yo'qolishi, %; a_{un} -o'choqdagi gaz tutunidagi qattiq zarrachalarni ulushi, suvning turiga bog'liq bo'lib, normativ usuldan qabul qilinishi mumkin; V -yoqilg'ini sarfi, kg/s; η -kul ushlovchi qattiq zarrachalarni ushlash darajasi;

v) Oltingugurt oksidlari SO_2 va SO_3 lar miqdorini qattiq va suyuq yoqilg'i yondirilganda SO_2 orqali hisoblash:

$$M_{SO_2} = 20 S^r B(1-\eta'_{SO_2})(1-\eta''_{SO_2}), \quad (3.2)$$

bu yerda S^r -ishchi massadagi yoqilg'idagi oltingugurt miqdori, %; η'_{SO_2} -qozonda uchib yuruvchi kul bilan bog'langan oltingugurt oksidini ulushi; η''_{SO_2} -kul ushlovchida ushlanuvchi oltin gugurt oksidini ulushi.

s) Qattiq va suyuq yoqilg'i yonganda atmosferaga tashlanadigan karbonat angidrid miqdori quyidagiga teng:

$$M_{SO} = S_n V \gamma_n \left(1 - \frac{q_4}{100}\right), \quad (3.3)$$

bu yerda S_n -qattiq, suyuq va gazsimon yoqilg'ini yondirganda karbonat angidridni ajralib chiqishini xarakterlovchi koeffitsiyent, g/kg (yoki g/m³); γ_n - karbonat angidridni chiqishiga ta'sir qilayotgan, yonish rejimini hisobga oluvchi, to'g'irlovchi koeffitsiyent, qozon normal ekspluatasiya qilingnda va o'choqdan chiqayotgan ortiqcha havo koeffitsiyentini normativ qiyomati $\gamma_n = 1$.

d) Qattiq, suyuq va gazsimon yoqilg'ilarni yondirganda atmosferaga tashlanadigan azot oksidi miqdorini NO_2 bo'yicha hisoblanganda, quyidagiga teng bo'ladi:

$$M_{NO_2} = 0,034\beta_1 V Q_n^p \left(1 - \frac{q_4}{100}\right)(1-\beta_2 r)\beta_3, \quad (3.4)$$

bu yerda β_1 -azot oksidini chiqishiga ta'sir qiluvchi yondiriladigan yoqilg'ini sifatining o'lchovsiz to'g'irlovchi koeffitsiyenti (tarkibida N^l); k-yoqilg'idagi MDj issiqlikka azot oksidini chiqishni xarakterlovchi koeffitsiyent, g/MDj; β_2 -effektiv ta'sir qiladigan resirkulyatsiyalovchi gazlarni o'choqqa ularni berish shartiga bog'liqligini xarakterlovchi koeffitsiyent; r-inert gazlarning foizdagi (tutun gazlarining, quritish agentining va x.o.) uflab chiqariladigan xavodagi sarfining resirkulyatsiya darajasi; β_3 - gorelka konstruksiyasini hisobga oluvchi koeffitsiyent: ugormali gorelkalar uchun $\beta_3=1$; to'g'ri oquvchilarga $\beta_3=0,085$. Tutun quvuri balandligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{TP} = \sqrt{\frac{AMFmn}{\Pi\Delta K - C_\phi}} \sqrt[3]{\frac{z}{V_1\Delta T}}, \quad (3.5)$$

bu yerda A- atmosfera sertifikatsiyasi xarakteriga bog'liq bo'lgan va atmosfera havosida zararli moddalarni gorizonta va vertikal tarqalish shartini aniqlovchi koeffitsiyent ; M- atmosferaga tashlanadigan zararli moddalarning miqdori, g/s; F- atmosferaga tashlanadigan zararli moddalarni cho'kib qolishini hisobga oluvchi koeffitsiyent(gazsimon aralashmalar uchun F=1, ushlab qolish darajasi 90% ko'p bo'lgan chang uchun F=2, 90% dan kam bo'lgan f=2,5%,); m va n tashlab yuboruvchi manbani uchidan gaz-havo aralashmasini chiqish sharoitini hisobga oluvchi, o'lchamsiz koeffitsiyentlar (m koeffitsiyentini f parametriga bog'liq bo'lgan holda aniqlaniladi); z-bir hil balanlikdagi tutun quvurlari soni; S_f-atmosfera-dagi zararli aralashmalarining fonli koeffitsiyenti, mg/m³.

Tutun quvurining butunlay yo'l qo'yilgan hisobiy balandligini quyidagi shart asosida qabul qilinadi:1)Quvur,200 m radiusda balandligi 15 m yuqori bo'lgan tepalarni borligi, bug' qozonlari binosida 5 m dan past bo'lmagan 25 m radiusda joylashgan bino tomidan baland bo'lishi kerak.

2)35 m past bo'lmagan; quvur balandligi tutunli gazlarni chiqarib tashlanadigan zararli moddalarni tarqalishiga sharoit yaratib berish kerak.

IV. IQTISODIY QISM.

4.1-jadval

Kimyoviy reagentlar sarfi bo'yicha haqiqiy ma'lumotlar

Nomlari	O'lchov birligi			Mahsulot hajmi (m³)	Solish -tirma sarf miq-dori (kg/m³)	Yillik talab (kg)
	hajmi	sarf midori	sarfi			
Qozonni suv bilan ta'minlashga tayyorgarlik tizimi						
Elmin- OX kislorod yutgichi	m³	kg/m³	kg	2890800	0,003	8672
rN ko'rsatgichini to'g'rilash uchun NALCO-72310 kimyoviy reagenti	m³	kg/m³	kg	2890800	0,008	2312
NALCO-7208 korroziyaning fosfatli ingibitori	m³	kg/m³	kg	2890800	0,003 2	9251
Suvni deminerallashtirish jixozsi						
Erkin xlorni neytrallash NALCO-780	m³	kg/m³	kg	613200	0,0143	8769
Qurumga qarshi NALCO RS-191 xim.reagenti	m³	kg/m³	kg	613200	0,0064	3924
HCl, 34 % xlorid kislotasi teskari osmotik membranalarini tozalagich	m³	kg/m³	kg	91980	0,0003 4	31

Na ₄ EDTA Trilon testkari osmos membranalarini tozalagich	m ³	kg/m ³	kg	91980	0,0005	110
NALCO RS-99 testkari osmos membranalarini tozalagich	m ³	kg/m ³	kg	245280	0,0031 2	765
NALCO RS-67 testkari osmos membranalarini tozalagich	m ³	kg/m ³	kg	275940	0,0016 2	447
NALCO RS-33 testkari osmos membranalarini tozalagich	m ³	kg/m ³	kg	275940	0,0021 6	596
NALCO RS-77 testkari osmos membranalarini tozalagich	m ³	kg/m ³	kg	521220	0,0044 6	2325
NALCO RS-11 testkari osmos membranalarini tozalagich	m ³	kg/m ³	kg	613200	0,001	613
NALCO RS-55 testkari osmos membranalarini tozalagich	m ³	kg/m ³	kg	613200	0,0014 6	895
H ₂ SO ₄ , 92 % Sulfat	m ³	kg/m ³	kg	313608 0	0,054	16934

4.2-jadval

Bir marta yuklashda foydalaniladigan, sochiluvchi materiallar va kimyaviy reaktivlarga talab bo'yicha

Ishlatiladiganlarning nomlari	Almashtirish muddati	Bir marta yuklash hajmi	Eslatma
Manfiy zaryadlangan ionlarni almashtirish uchun mo'ljallangan "ANION MARATHON" anioniti	4 yilda 1 marta	9,68 m ³ (7,26 t)	
Musbat zaryadlangan ionlarni almashtirish uchun mo'ljallangan kationit "CATION MARATHON"	4 yilda 1 marta	9 m ³ (7,28 t)	
Organik moddalar va mexanik aralashmalarni ushlab qolish uchun 8 x30 faollashtirilgan ko'mir	8 yilda 1 marta	62 m ³ (32,55t)	
Texnik suv tarkibidagi mexanik aralashmalarni ushlab qolish uchun 1,0-1,2 mm li antrasit	4 yilda 2 marta	3 m ³	
Texnik suv tarkibidagi mexanik aralashmalarni ushlab qolish uchun 0,35-0,54 mm o'lchamdagi filtrlovchi kvars qum	4 yilda 1 marta	2,25 m ³ (3,6 t)	

4.3-jadval

Mahsulotlar va xom ashyolarning sarfi bo'yicha ma'lumot

Nomlari	Sarf ko'rsatkichi		Yillik sarf	
	O'lchov birligi	sarf	O'lchov birligi	Soni
Ta'minlash suvining nasosi va kondensatni tozalash tizimi				
FA-6002 idishidagi VD (T=159°S, R=500 kPa) kondensat	t/s	52,3	t /yil	458148
FA-6002 idishidan PB bug'	t /s	10,5	t /yil	91980
FA-6002 idishidan kondensat	t /s	41,8	t /yil	366168
FA-6001 idishiga PB kondensat	t /s	183,810	t /yil	1610175,6
PA-6004 kondensatni tozalash tizimiga FA-6001 idishidan PB kondensat	t /s	180,060	t /yil	1577325,6
FA-6001 dan DA-1102 ga PB kondensat	t /s	3,5	t /yil	32850
PA-6003 deaerirovanlashgan suvni tayyorlash tizimiga tozalangan kondensat	t /s	296,378	t /yil	2596271,28
PA-6003 deaerirovanlashgan suvni tayyorlash tizimiga PB bug'	t /s	16,1	t /yil	141036

PA-2000 jixozidagi qozonni O'YUB ta'minlash suvi	t /s	2,573	t /yil	22539,48
PA-1000 jixozidagi qozonni O'YUB ta'minlash suvi.	t /s	73	t /yil	614952
PA-6101 jixozidagi qozonni YUB ta'minlash suvi	t /s	210,63	t /yil	1845118,8
PA-2000 jixozidagi qozonni YUB ta'minlash suvi	t /s	24,825	t /yil	217467
2000 jixozidagi qozonni YUB ta'minlash suvi	t /s	0,75	t /yil	6570
Vakuum kondensatini tozalash tizimi				
PA-6002 jixozidagi vakuum kondensati (T=49°C, R=850 kPa)	t /s	88,53	t /yil	775522,8
Demineralizatsiyalashgan suvning taqsimlash tizimi				
Maxsulot ishlab chiqarish, xarajat, tashlanma				
PA-6302 jixozidan demineralizatsiyalashgan suv	m ³ /s	70	m ³ /yil	613200
PA-6302 jixozi uchun texnik suv	m ³ /s	96	m ³ /yil	840960
PA-6302 dan oqova suvlarni tashlash	m ³ /s	26	m ³ /yil	227760
Iste'molchi	m ³ /s		m ³ /yil	
FB-6001 kondensat idishidagi demineralizatsiyalashgan suv	m ³ /s	27,8	m ³ /yil	243528

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi «Sho‘rtan gaz kimyo majmuasida mineralsizlashtirilgan qozon samaradorligini oshirish maqsadida qushimcha xavo qizdirgichni o‘rnatish taklifi ko‘rib chiqilgan. Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi asosan tabiiy gazni tarkibidagi etan gazini termik piroliz texnologiyasi asosida qayta ishlab polimer maxsulotini ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan.

BGHT sexida yuqori bosimli bug‘ni ishlab chiqarish uchun dastlabki Qarshi magistral kanalidan olinadigan suvni demineralizasiya asosida tozalash usuli ko‘rib chiqilgan. SHGKM ning ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining sifati xam BGHT sexiga bog‘liqdir.

Sho‘rtan gaz kimyo majmuasida ishlab chiqarish texnologiyasi asosiy ikkita maydondan iborat: etilen va polietilen olish qurilmalari hamda umumiy zavod sexlari maydonidir. Zavod hududida texnologik jarayonlarini bajarish uchun yani tabiiy gazni fraksiyalarga ajratish uchun asosiy energoresurs sifatida yuqori parametrli bug‘ ishlatiladi. Bug‘ni yetkazib berish uchun bug‘ gaz havo ta‘minoti sexi xizmat qiladi. Yuqori haroratli bug‘ni ishlab chiqarish uchun suv Qarshi magistral kanalidan olinadi. Tabiiy suvning tuzli va qattiqligi yuqori bo‘lganligi tufayli, suvni SHGKM siklida ishlatishdan oldin uni tuzsizlantirish va yumshatib uzatish lozim.

Mening bitiruv malakaviy ishimda ushbu sexda yuqori bosimli bug‘ni ishlab chiqarish uchun dastlabki Qarshi magistral kanalidan olinadigan suvni PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi yuqori bosimli bug‘ qozoni o‘txonasiga yonish jarayonini optimallashtirish maqsadida bug‘ turbinasi past bosimli bug‘ kollektoridan bug‘ olish orqali havoni regenerativ qizdirgichi o‘rnatilishi usuli ko‘rib chiqilgan. Jarayon o‘txonadagi yonish reaksiyasini , mexanikaviy va kimyoviy jarayonga asoslanadi. Xavo qizdirgich 5kg/sekund bilan xavo qizdirgichga 170 – 190 °C li bug‘ orqali isitish vazifasini bajaradi. Yonish jarayonini barqarorlashtirish hamda

isitilgan xavo berilish natijasida yoqilg'i energetik resursni tejalish masalasi o'z yechimini topadi.

PA – 6101 Chanute Manufacturing kompaniyasi ishlab chiqargan 35VP18R/54 turidagi bug' qozoni yoqish garilkalarida yonayotgan tabiiy gazni 1 soatda 60000 m^3 gacha iqtisod qilamiz.

Bitiruv malakaviy ishimda belgilangan mavzu orqali berilayotgan taklifim joydagi sharoitdan kelib chiqib rekupirativ xavo qizdirgich uskunani yasash imkoni mavjudligidadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyasi. T. O‘zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozi, uni O‘zbekiston sharoitida bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T .:2009 y.
3. Karimov I.A. «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». – T .:1997y.
4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.– T .: O‘zbekiston, 2010y.
5. Karimov I.A. «Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch». Toshkent. «Ma’naviyat», 2008 y.
6. Закон Республики Узбекистан «Об экологической экспертизе» от 25.05.2000г., №73-II.
7. Закон Республики Узбекистан «О безопасности гидротехнических сооружений» от 20.08.1999г., №826-1.
8. Рижкин В.Й. «Тепловые электрические станции». М.: Энергия, 1976 г.
9. Николадзе Г.И. «Технология очистки природных вод». М. Энергия, 1998 г.
10. Термодинамические свойства воды и водяного пара. Справочник. М.: Энергоатомиздат, 1984 г.
11. J.Nurmatov, N.A. Hakimov «Issiqlik texnikasi».T. O‘qituvchi, 1998 y.
12. Долин П.А. «Справочник по техники безопасности». М.: Энергия, 1993г.
13. Yormatov G.Y., Hamrayeva A.L. «Atrof-muhitni ifloslantiruvchi omillar va ularga qarshi kurash chora-tadbirlari». ToshDTU 2002 y.
14. O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonuni.
15. В.Ф. Вихрев., М.С. Шкров «Водоподготовка». М.: «Висшая школа», 1974 г.
16. Ф.И. Белан «Водоподготовка». М. Энергия, 1980 г.
17. Ф.М. Флоров «Эксплуатация водяных систем теплоснабжения». М. Стройиздат, 1991г.

18. Аллаев К.Р. «Энергетика мира и Узбекистана». Аналитический обзор.— Т.: «Молия» Банковского-финансовой академии, 2007г.
19. А.Б. Горяев, О.Л. Данилов, А.Л. Ефимов, И.В. Якоблев «Энергиясбережения в энергетике и технологиях. Энергиясбережения в низкотемпературных процессах и технологиях». М.: Изд-во МЭИ 2002 г.
20. Лифшир О.В. Справочник по водоподготовке котельных установок. Изд. 2-е перераб. и доп. М. Энергия 1976.
21. Роддатис К.Ф. Котельные установки. Учебное пособие для вузов. М. Энергия 1977.
22. Роддатис К.Ф. Полтарецкий А.Н, Справочник по котельным установкам малой производительности. М. Энергоатомиздат 1989.
23. Роддатис К.Ф. Котельные установки. Учебное пособие для вузов. М., Энергия, 1997.
24. Брюханов О.Н., Кузнецов В.А. Газифицированные котельные агрегаты. М.,ИНФРА-М, 2005 г.
25. Методика определения выбросов загрязняющих веществ в атмосферу при сжигании топлива в котла. производительностью менее 30 тонн пара в час или менее Гкал в час. М.,1999.

Internet manbalari.

26. www.vpu.ru.
27. www.mpeu.ru/
28. www.aquakit.su